

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

omonova LATOFAT FARXOD QIZINING

5111700 - BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT-TARBIYAVIY ISH TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA
BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN «Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama
tarbiyalash vosita va usullari» MAVZUSIDA YOZGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

GulDU «Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim
metodikasi» kafedrasining 29. 05. 2019 yildagi
14-sonli majlis qarori bilan himoyaga tavsiya etildi.
Kafedra mudiri: B.X.RAXIMOV

Rahbar: dots. R.ERGASHEV

Bajaruvchi: L. OMONOVA

GULISTON - 2019

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.bob. KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASH VOSITA VA USULLARINING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI.....	7
1.1. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning maqsad va vazifalari.....	7
1.2. Boshlang'ich sinflarda tarbiya jaryonining asosiy qoida, vosita va usullari.....	17
II bob. KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASH JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKL, VOSITA VA USULLARI.....	32
2.1. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash imkoniyatlari.....	32
2.2. Sinf dan va maktab tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash shakl, vosita va usullari	43
UMUMIY XULOSA VA METODIK TAVSIYALAR.....	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	56

Muammoning dolzarbligi. Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash, ularni yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli inson etib voyaga etkazish davlat ta'lim-tarbiya siyosatining strotegik yo'nalishlaridan biri bo'lib, bunday mas'uliyatli va sharaflil vazifani amalga oshiruvchi o'qituvchi-murabbiylarga katta ishonch bildiriladi. [1,2,3,4]

Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, ijtimoiylashtirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, urf-odat va pedagogik an'analarning ustuvorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishdan ko'zlangan maqsad ham o'sib kelayotgan yosh avlodni o'z yurtining fidoyisi, vatanparvar, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. [3,4-6]

Respublikamiz Prezident Sh.M.Mirziyoevning ta'lim-tarbiyaga doir Farmon va Qarorlari, asarlari va nutqlari, yoshlar siyosatiga oid davlat xujjatlarida barkamol avlodni voyaga etkazish, ularda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, uni amalga oshirishda o'qituvchi va murabbiylarning salohiyati, bobokalonlarimizning boy ma'naviy-ma'rifiy merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, madaniy yodgorliklar, tarbiyaning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish zarur ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan. [1-3,4-7]

O'zbek xalqi bola tarbiyasi sohasida ulkan tajribaga ega. Xalqimiz o'zoq asrlar davomida tarbiyaning samarali vosita va usullarini hayotda sinab ko'rib, bizga boy pedagogik meros qoldirgan. Xalq og'zaki ijodi, uning turli xil janr va turlari, an'ana va urf-odatlari o'tmishda tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ustoz-shogird munosabatlarida pand-nasihat, namuna, o'yin, odatlantirish, o'rgatish, qo'llab-quvvatlash, maqtash, tanbeh, uyaltirish, tanqid, o'z-o'zini nazorat qilish kabilar tarbiya usullari vazifasini o'tagan. [17-20]

Ta'lim muassasalarida o'quvchilar tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor berilayotgan bo'lsada, bu borada o'z echimini kutayotgan muammolar ham talaygina. Keyingi yillardagi tadqiqot ishlari, ilmiy izlanishlarda ko'proq ta'limiy muammolar, yangicha o'qitish texnologiyalari mavzulari ustida bahs yuritilmoqda.

Aslida, tarbiyani birinchi masala darajasiga olib chiqish, maqsadga muvofiqdir. Chunki, jamiyat ravnaqi uchun faqat nazariy bilimlarga ega bo'lgan, mexanik mashina singari vazifalarni bajaruvchi kasb egalari emas, balki yuksak his-tuyg'u, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar zarur. Ma'naviy ehtiyoj va dunyoqarash, madaniyat va axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish orqaligina bunday shaxsni tarbiyalash mumkin. [10-16]

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim va tarbiya mazmunini tubdan isloh qilindi. Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, urf-odat, an'analarimiz, axloq-odob, madaniyatimiz qayta tiklanib, ular ta'lim-tarbiya mazmunining asosiga aylandi. Zero, o'sib kelayotgan yosh avlod o'z xalqining milliy qadriyatlari, axloq-odob madaniyatini o'zlashtirishi va ularga hurmat bilan qarashi lozim. Shundagina u o'z yurtining haqiqiy vakili degan ulug' unvonga ega bo'ladi. [23]

Keyingi yillarda o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash muammosiga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Pedagog olimlarimiz tomonidan yaratilgan bir necha risola, o'quv qo'llanma, ilmiy tadqiqot ishlari bunga yaqqol misol bo'la oladi: Azizxo'jaeva N., Ergashev A., Hasanboeva O., Hakimov D., Iskandarov X., Jo'raev A., Mavlonova R., Matchonov S., Munavvarov A., Ochilov M., Ubayxo'jaev D., Umarova M., Xoshimov K., Zunnunov A., Quronov M., G'afforova G'. va boshqalar shular jumlasidandir. [11,13,16,17,20,21-24,25-29,31,33,38]

Tarbiyaning vosita va usullari muammosiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ko'plab uchrasada, ammo ular asosan katta yoshdagi o'quvchi va talabalar o'rtasida ma'naviy-axloqiy ishlarni olib borishga qaratilgan. Lekin, kichik yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalashda qo'llaniladigan vosita va usullar haqida yaxlit bir tadqiqot ishi qilingan deb bo'lmaydi.

Qolaversa, keyingi yillarda tarbiyaga nisbatan ta'limga e'tibor kuchayib bormoqda. Tarbiyaning mazmuni, maqsad va vazifalari, uni amalga oshirishning vosita va usullari tadqiqot sifatida ko'pchilikni qiziqitirmayapti. Buning natijasi

qanday holatlarga olib kelishini tasavvur etish qiyin emas. Vaholanki, bizning xalqimiz bola tarbiyasi sohasida katta tajriba va imkoniyatlarga ega.

Muammoning dolzarbligi, nazariy-pedagogik va amaliy holatidan kelib chiqib, biz bitiruv malakaviy ishimizning mavzusini tanladik.

Tadqiqot ishimizning *maqsadi* – kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning samarali vosita va metodlarini aniqlash.

Muammoning dolzarbligi, maqsadi, ob'ekt va predmetidan kelib chiqib, tadqiqot ishimizning quyidagi *vazifalarini* belgilab oldik:

1. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash vosita va usullarining nazariy va amaliy holatini o'rganish.
2. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning mazmun, maqsad va vazifalarini aniqlash.
3. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning qonun-qoidalari, samarali vosita va usullarini tasniflash.
4. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash vosita va usullarini pedagogik jihatdan asoslash.
5. To'plangan nazariy-metodik ma'lumotlar va tajriba-sinov ishi natijalari asosida mavzuga doir uslubiy tavsiyalar berish.

Tadqiqot ishimizning *ob'ekti* – boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalash jarayoni, *predmeti* – kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalari, uni amalga oshirishning samarali vosita va usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot ishimizning **bazasi** sifatida Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 8-sonli o'rta umumta'lim maktabining boshlang'ich sinflari xizmat qildi. Tajriba-sinov ishida 7 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchilari va 65 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdilar.

Pedagogikaning quyidagi **tadqiqot metodlaridan** foydalanildi: muammoga doir ilmiy adabiyotlarni tahlil etish, kuzatuv, anketa, so'rov, intervyu, ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tajribalarini o'rganish, pedagogik eksperiment, to'plangan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish va boshqalar.

Tadqiqot ishimizning **yangiligi va nazariy ahamiyati** shundan iboratki, kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirishning samarali vosita va usullari asoslab berilgan. Boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligi, sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning samarali usul va vositalari yoritilgan.

Ishimizning **amaliy ahamiyati** shundaki, nazariy material va sinov-tajriba natijalari asosida to'plangan ma'lumotlardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda talabalar tarbiyaviy pedagogik faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Belgilangan tadqiqot maqsadi va vazifalarini hal etish bitiruv malakaviy ishimizning mazmunini tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, uning to'rt qismi, umumiy xulosa va metodik tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I.bob. KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASH
VOSITA VA USULLARINING NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

**1.1. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning
maqsad va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning yoshlarga oid davlat siyosati, o'quvchi-yoshlarni har tomonlama tarbiyalash to'g'risidagi Farmon va Qarorlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib voyaga etkazish, uni amalga oshirishda milliy qadriyatlar, an'analar, boy madaniy meros bilan birga ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish ustivor yo'nalish etib belgilangan. [1,2,3-7]

Mamlakatimizda olib borilayotgan davlat ta'lim-tarbiya siyosatida o'quvchi-yoshlarni har tomonlama tarbiyalash mazmunini milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida yanada takomillashtirish, uni amalga oshirishning samarali omil, vosita va usullaridan foydalanish vazifasi belgilab berilgan. [8,9]

Tarbiya ijtimoiy hayotning uzluksiz tushunchasi bo'lib, tarixiy xarakterga ega. Qadimgi Gretsiya va Rimda tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi fazilatlarga o'rgatish, unda fuqarolik, vatanparvarlik, ja'surlik, sadoqat, do'stlik kabi sifatarni rivojlantirish bo'lgan. [17,20]

O'rta asrlarga kelib yosh avlodda diniy e'tiqod, iymon, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish zarurati to'g'ilgan. Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvafaqqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirdi. [33,35]

Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi. Ma'lum muddat bizning hayotimizga yod bo'lgan siyosiy-mafkura kirib kelib, o'z hukmini o'tkazishga harakat qildi va yoshlarimiz ongiga uni singdirish o'sha davr tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunda uning ruhiy asoratlaridan to'liq qutildik. Ushbu mafkura 70 yildan ortiq hukmronlik qilib keldi. Bu davrda ta'lim sohasida bir qancha yutuqlarga erishgan bo'lsakda, lekin, juda ko'plab ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizdan yiroqlashtirish tarbiyaning bosh vazifalaridan biri bo'ldi. Jumladan, milliy qadriyatlarimiz,

ma'naviy-ma'rifiy boyliklarimiz, diniy e'tiqod va iymonimiz kabi ko'plab tarbiyaviy ozuqa vositalarimizdan foydalanishga izm berilmadi. [17,33]

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik, boy ma'naviy qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga etishdik. O'zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama etuk shaxs etib tarbiyalash ustuvor masalalar qatoriga kirdi. [8,9]

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ijtimoiy soha bo'yicha Harakatlar strotegiyasi, yoshlarga oid davlat siyosati, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi Farmon va Qarorlarida o'quvchi-yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularni barkamol inson qilib voyaga etkazish vazifalari aniq belgilab berilgan. [1,2,3-7]

Zamonaviy pedagogikada tarbiyaning asosiy *maqsadi* – *yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol inson etib shakllantirishdan iborat*. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi. [24,25,28]

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda Sharq mutafakkirlarining meroslari dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Al-Farobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Firdavsiy, A.Temur, A. Navoiy va Bobur singari jahonga taniqli bir necha mutafakkirlarning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, pedagogik, axloqiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi. [17,20,33,35,36]

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish – bizning muqaddas burchimiz, or-nomusimiz. Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy, oson ish emas. U ko'plab, oylab, yillab mehnat qilishni, sabr-toqatni, chidam va qat'iyatlilikni, irodani talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh etib, Respublikamiz istiqbolini belgilovchi yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol shaxs, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobat-bardosh kadrlar etib

tayyorlashni oliy maqsad qilib qo'ydi. Bunday inson, kasb-hunar egasi oilada, maktabda va boshqa ta'lim tizimi jabhalarida ta'lim–tarbiya oladi. [23,24]

Tarbiyaning oliy maqsadiga erishish uchun ma'lum *vazifalarni* bajarishimiz lozim bo'ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin: milliy-mafkuraviy, g'oyaviy-siyosiy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiya. Tarbiyaning har bir tarkibiy qismi oliy maqsadga xizmat qilishi bilan bir qatorda o'z xususiyatiga ham ega. [24,24,28,30]

Milliy-mafkuraviy tarbiya – o'quvchilarda milliy istiqlol g'oyasiga, umumbashariy va milliy qadriyatlarga sodoqat, vatanparvarlik his-to'yg'ularini shakllantirishga qaratilgan jarayondir.

Huquqiy tarbiya – o'z haq-huquqlarini biladigan, ularni himoya qila oladigan, mustaqil fikrlaydigan, siyosat va inson xuquqini chuqur biladigan, konstitutsiya qonunlariga amal qiladigan, o'z fuqarolik burchlarini yaxshi his etadigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan

Aqliy tarbiya - barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirishni maqsad qilib qo'yadi.

Axloqiy tarbiya. Axloq – ijtmoy ong shakllaridan biri bo'lib, insonning jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi hulq-odob qonun-qoidalarini, me'yorlari majmuidir. Ana shu xulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sirga axloqiy tarbiya deyiladi. [10,12,17,25,28]

Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko'rinishlarda o'zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur'oni Karimda va Hadisu shariflardagi axloqqa oid ibratli ko'rsatmalar, maslahatlar, ota-bobolarimiz yaratgan ma'naviy meroslar, mutafakkirlarimizning axloq haqidagi yaratgan ma'naviy

meroslaribugunga qadar ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Axloqiy tarbiya eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. [10,12,19,23]

Axloq, xulq va atvor so'zlari arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Axloq nima o'zi? *Axloq* – ijtimoiy ong shakli bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida insonning xulq-atvorini yo'lga solib turadigan qoidalar, talablar, va me'yorlar majmuidan iborat. Axloqda jamiyatda tarkib topgan «yaxshilik», «sharaf», «vijdon», «adolat», «to'g'rilik», «halollik», «poklik» singari tushunchalari mustaxkamlangan odamlarning xulq-atvorlari, me'yorlari aks etadi. Bu axloqiy tushunchalarning hammasi ham baholanuvchi harakterga ega. [10,12,19,25,28]

Yosh avlodning axloqiy tarbiyasida axloqiy ong va axloqiy tuyg'ularni shakllantirishgina emas, balki eng muhimi – ularning *ma'naviy-axloqiy munosabatlarida* namoyon bo'ladigan faoliyatning har xil turlariga jalb etish mumkin. Maktab o'quvchilarining faoliyati jarayonidagi axloqiy munosabatlarida ularning odobli bo'lib tarbiyalanish darajasi aks etadi. A. S. Makarenko o'z vaqtida bunday deb ta'kidlagan edi: «Biz doimo munosabatlar bilan ish ko'ramiz, chunki xuddi munosabat pedagogik ishimizning xaqiqiy ob'ekti bo'lganligi sababli, bizning oldimizda doimo ikkita ob'ekt: shaxs va jamiyat turadi. Shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yishning, uni munosabatlardan holi qilishning mutlaqo iloji yo'q». [17,20, 24,33]

Axloqiy munosabatlar o'z ichiga kishining jamiyatga, mehnatga, boshqalarga va o'z-o'ziga axloqiy munosabatlarini oladi. Jamiyat taraqqiyoti tarixi shuni ko'rsatadiki, faqat ma'naviy keng quloqch yoygan, ilm taraqqiy etgan mamlakatdagina adolatli jamiyat qurish va unda bir-biriga mehr-oqibatli, kamolotli insonlar shakllanishi mumkin. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi va bunyodkorlik, yaratuvchilik ishiga, ezgulikka intilishi kuchli bo'ladi. [10,12,20,24,33]

Axloq insoniyat ma'naviy madaniyatining ko'rinishlaridan biri bo'lib, u kishilarning tarixiy tarkib topgan xulq-atvori va yurish turishini ifodalaydigan,

ularning bir-biriga va jamiyatga munosabatini aks ettiradigan muayyon qoidalar yig'indisidir.

Axloq tushunchasi irodalilik, jasurlik, qa'tiylik, vijdoniylik, kamtarlik, adolatlilik, sharm-xayolilik, shirinzaonlik kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi.

Iroda – maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Kamtarlik kishining o'ziga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Kishining o'z qobiliyati, mehnati va muvofaqiyatlarini qanday baholashiga, boshqa odamlarning qadir-qimmati va yutuqlariga qanday munosabatlarda bo'lishiga qarab uning kamtarinlik hislatlari aniqlanadi.

O'quvchilarni axloqiy tarbiyalash ta'lim bilan uzviy ravishda bog'lab olib boriladi. Ularda ijtimoiy ong va xulq birga shakllantiriladi. O'quvchilarda jamiyat va Vatanga, mehnatga, kishilarga bo'lgan axloqiy munosabatlarini shakllantirish quyidagilarni o'z isiga oladi:

1. Jamiyatga, Vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash. Bu xildagi munosabatlar shaxsning vatanparvarligi, fuqaro etukligi, baynalminallik kabi fazilatlarida aks etadi, uning maqsadlarida Vatan boyliklarini ko'paytirish, ularni himoya qilish va mustaxkamlashga qaratilgan amaliy ishlarida namoyon bo'ladi.

2. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash – shaxsning butun ma'naviy yunalishini belgilaydi. Chunki kishi ishlamay, ko'rashmay yashashi mumkin emas. Mehnat – yashash manbai. Bu axloqiy munosabat shaxsning mehnat jarayonida namoyon bo'ladigan yuksak ongida, mehnatning hayotdagi rolini anglashida, xususiy va ijtimoiy foydali mehnatga tayyorligida, mehnatni xurmat qilish va mehnatsevarligida ifodalanadi.

3. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat – shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik ma'nfaatini o'z shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishidir. [10,12,19]

4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashi – bu o'quvchini o'z-o'ziga nisbatan ongli intizom ruhida tarbiyalashga o'rgatishdan iboratdir. [10,12]

Shaxsni har tomonlama kamol toptirishdagi umumiy tizimning asosi axloqiy

tarbiya hisoblanadi. Axloqiy munosabatlar muayyan fazilatlarni o'z ichiga oladi, chunki ma'naviy fazilatlar axloqiy ong, axloqiy his-tuyg'u va odab birligidan iboratdir. Demak, axloqiy munosabatlar – bu jamiyatga, mehnatga, boshqa odamlarga, o'z-o'ziga munosabatidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qo'yidagi axloqiy ***munosabatlarni*** shakllantirish lozim:

1. Insonning jamiyatga munosabatini belgilovchi axloqiy fazilatlar ichida vatanparvarlik va baynalminallik axloqiy tarbiyada alohida o'rin tutadi. Hadisu sharifda “Vatanni sevmoq iymondandur” deb bejiz aytmagan.

2. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat shaxsning jamoatchilik, ko'pchilik manfaatini o'z shaxsiy manfaatdan ustun qo'yishdir.

3. Mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash shaxsning butun ma'naviy yo'nalishini belgilaydi.

4. Shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash – bu o'quvchining o'z-o'zini ongli intizom ruhida tarbiyalashga o'rgatishdan iboratdir. [10,12,19,25,33,35,36]

Inson – tabiatning eng buyuk ne'mati. Unga aql-idrok, ong, farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, u o'z insoniy fazilatlariga sayqal berib, rivojlantirib olamni, insoniyatni kamolotga etaklab boradi.

Odamning inson sifatida shakllana borishida uning kamoloti darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat kabi hislatlarning unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. Shu o'rinda bu kategoriyalarning mohiyati ustida to'xtalib o'tishimiz joizdir.

Odob – har bir insonning boshqa bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida, yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Xulq – odobning ichki tuyg'u, ko'nikmaga aylangan ko'rinishidir.

Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob me'yorlari majmuidir.

Madaniyat – jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmui hisoblanadi

Ma'naviyat – insonning barcha qarashlarini aks ettiruvchi mezon, barcha ijobiy, ruhiy, intellektual fazilatlar majmuidir. [10,12,28,30]

Mushohada qilish aqlning peshlanishiga olib keladi. Aql ongni sayqallaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaaga aylanadi. Shu tarzda inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi.

Inson ma'naviyatli bo'lishi uchun juda ko'p insoniylik bilimlari sarchashmasidan bahramand bo'lishi, o'z ustida tinmay ishlashi va hayotni kuzatib, undan saboq chiqarib borishi lozim.

Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» nomli asarida komil insonlar haqida shunday deydi: «Yaxshi fazilatlarni o'ziga kasb qilib olgan insonlar yaxshi insonlar deyilur». Avloniy yaxshi insonlar deganda odamlarga yaxshilik qila oladigan, kamtar, saxiy, mehnatkash, mehr-shafqatli, bilimdon, o'zgaralar uchun qayg'uradigan mard insonlarni ko'zda tutsa, «yomon insonlar deb, yomonlik fazilatlari yaxshilik fazilatlaridan ustun turadigan insonlarga aytiladi», deydi. Avloniy kishilarni o'zida yaxshi fazilatlarni to'plagan, el nazariga tushgan, yaxshilikka intiluvchi, o'zini tarbiyalab borishga o'rgangan insonlar bo'lishga undaydi. [10,17,20]

Moziyga bir nazar tashlaylik. Biz xohlaymizmi yo'qmi, sharqona erkaklarimizga xos mardlik, jasurlik, g'urur kabi, momolarimizdan or-nomus, iffatlilik, nazokatlilik, sharm-xayo, shirinzabonlik kabi xislatlar asrdan-asrga meros bo'lib o'tib kelmoqda.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umur mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan ayniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. [24,25]

Dono xalqimiz, allomalarimiz mehnat haqida juda ko'plab fikrlar aytishgan. Haqiqatda ham mehnatsevarlik doimo ulug'langan, dangasalik, mehnatsiz boyluk orttirish qoralangan. Mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishdan,

axloqiy buzilishdan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zini, o'z qadrini biladi, uni el-yurt ulug'laydi. [17,19,35]

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdan iboratdir. [24]

Estetik tarbiya. Estetika lotincha «Ectetikos», ya'ni «his etaman» degan ma'noni bildiradi. Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg'usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Estetik tarbiyaning maqsadi - o'quvchilarni tabiat, jamiyat va san'atdagi go'zalliklarni idrok etish, ularni to'g'ri tushunib etish, qadriga etish, hayotga qayta go'zallik olib kira olishga o'rgatishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi. Biz nafaqat narsa va xodisalar, balki insoniy xulq-atvor, fazilatlarini ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. Insoniy go'zallik aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo'stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hakoza sifatlarni o'zida namoyon qiladi. [25,28,30]

Estetik tarbiya go'zallikdan zavqlanishga, xuniklikdan nafratlanishga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o'rgatadi. Bu holatlarni kishi hayot va san'at voqealiqlarida uchratishi mumkin.

Iqtisodiy tarbiya. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni kamol toptirishdir.

Iqtisodiy tarbiya maktabda asosan tabiiy-matematik fanlar asosida beriladi. Unda o'quvchilar ishlab chiqarishning turli sohalari, bozor, oila byudjeti, iqtisodiy geografiya, marketing kabi ko'plab zamonaviy tushunchalar bilan qurollanadilar. [19, 24,28]

Ekologik tarbiya. «Ekologiya» – ynunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudodlarining yashash sharoiti, uyi, joyi va tevarak-atrofdagi muhit bilan

o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandır. Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning ekologik madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudodlarning yashash sharoiti, muhiti qonun-qoidalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo'shadi, u atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaydi, aksincha uni yaxshilashga, sog'lomlashtirishga xarakat qiladi. [12,19,28]

Jismoniy tarbiya. Barkamol inson nafaqat ma'naviy jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham etuk bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yana bir tarkibiy qismidir. Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom o'sishlarini, baquvvat bo'lishlarini va vatanimiz himoyasi uchun qo'rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol aslohatlardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o'zining oliy maqsadi deb biladi. [24]

O'quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o'yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida beriladi.

Tarbiyaning tarkibiy qismlari o'z vazifalarini bajarishi bilan bir qatorda, oliy maqsadga – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Ular bir-birlari bilan chamabarchas bog'liq bo'lib, ta'lim muassasalarining o'quv fanlarini o'qitish, sinfdan va maktabdan tashqari sharomtlarda, muayyan tarbiyaviy tizimda amalga oshiriladi.

Maktabda bolalarni tarbiyalash o'quv jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari turli tuman ishlarda olib boriladi. O'quvchilarga bilim, malaka va odatlar shakllantiriladi. Bolalar odob va odobsizlik haqida tushuncha oladilar. Ular axloqiy tushunchalarni badiiy va ilmiy adabiyotlar, hayot, kinofilm va spektakllar orqali anglaydilar. [8,9]

Maktabda o'quvchilarga tarbiya berishda ma'lum bir **tamoyillarga** amal qilinadi:

1. Tarbiya o'quv jarayoni bilan qo'shib olib boriladi.
2. Tarbiya jarayonining muvafaqqiyati o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq. Buning uchun jamoa ahil va inoq, bolalar intizomli

bo'lishlari kerak.

3. Tarbiyaviy ishlarning rejali bo'lishi va hamjihatlik bilan amalga oshirilishi tarbiyaning muvafaqqiyatini ta'minlaydi. A.S.Makarenkoning «o'nta yuqori malakali, o'z holicha ishlaydigan o'qituvchidan, malakasi past, bir yoqadan bosh chiqaradigan beshta o'qituvchi afzal» deganini unutmash kerak.

4. Maktabda ijobiy-emotsional muhitni yaratish tarbiya jarayoniga foydali ta'sir etadi. Masalan, Respublika mustaqilligi kuni, Navro'z bayrami kabilar.

Barcha o'quvchilarning maktabdagi umumiy va yagona tartib-qoidaga rioya qilishlariga erishish lozim. [24,25,28,30]

Tarbiyaviy soatlar, «Odobnoma» va boshqa darslarning saviyasini oshirish kerak bo'ladi.

Milliylik va zamonaviylikning uyg'unligini ta'minlamay turib, yuqorida ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Milliy tarbiya millatchilik tarbiyasi emas, aksincha madaniyat – o'zbek xalqining, hayotning barcha jabhalarida erishgan o'ziga xos yutuqlarini tiklash, rivojlantirishni davom ettirishning ma'rifiy vositasi bo'ladi. Faqat milliy tarbiyagina o'zbek bolalarida milliy qadriyatlarni, or-nomusni va sof vijdonni, mehnatsevarlikni, ilmga chanqoqlikni, mehr-oqibatni, tashabbuskorlikni, mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini boyitib, keyingi avlodlarga etkazishga xizmat qiladi. [25]

Uzoq yillar milliy qadriyatlarimiz, milliy tarbiyamiz, ming yillik urf-odatlar kamsitilib, tilimiz, dinimiz oyoq osti qilinishi oqibatida odamlar orasida mexr-oqibat, diyonat, sharm-xayo, andisha, or-nomus, holollik, kattalarga hurmat, kichiklarga e'tibor susayib ketdi.

Darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida Alpomish, To'maris, Shiroq kabi xalq qaxramonlari, Amir Temur, Bobur, Ulug'bek singari davlat arboblari va sarkardalarimiz, Ibn Sino, Beruniy singari olimu fuzalolarimizning axloqiy qarashlariga tez-tez murojaat qilishimiz yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning asosini tashkil qiladi.

1.2. Boshlang'ich sinflarda tarbiya jaryonining asosiy qoida, vosita va usullari

Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, tarbiya – bu ma'naviy manbalar, hozirgi zamon talab va ehtiyojlari nazarda to'tgan xolda, o'qituvchining o'quvchilar bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir. [24,25,30]

Tarbiyashunoslik nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undan va bu xatti-harakatni sekin asta ko'nikmaga aylantirib borishni taqazo etadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. [17,20,33]

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi. [25,28]

Ijtimoiy ehtiyojlar tarbiya jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, usullari va vositalarini qonuniy ravishda aniqlab beradi. Tarbiyashunoslik fanidagi qonun va qonuniyatlar ijtimoiy qonuniyatlarga to'la mos bo'ladi. Chunki, ijtimoiy qonuniyatlar jamiyatning taraqqiyotini, unda insonning tutgan o'rnini, qanday faoliyat bilan shug'ullanishini, yashashdan aniq maqsad bo'lish kerakligini belgilaydi. [24]

Tarbiya jarayoning mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan **qonuniyatlarda** namoyon bo'ladigan ichki xodisa va munosabatlarni aks ettiradi. [24,25,28]

Qonuniyat – barqaror, zaruriy, u yoki bu xodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqadir. Tarbiyaning **asosiy qonuniyatlariga** quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlarga bo'linishi natijalarga olib keladi;
- tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga quyiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiya qonuniyatlari birinchi navbatda jamiyatning *ijtimoiy ehtiyojlarini* qondirishga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston milliy istiqloлга erishgandan keyin tarbiyaning jamiyat oldidagi mohiyati o'zgardi. Eski jamiyatning mafkurasiga asoslangan tarbiya yo'nalishi o'zgarib, yangi barpo bulayotgan tuzumga mos mutaxassis kadrlar tayyorlash zarurati paydo bo'ldi. Jamiyatimizda tarbiyaning butun yo'nalishi shu ehtiyojdan kelib chiqqan xolda o'zgardi. Ijtimoiy ehtiyoj ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etdi. Shunga asosan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi. Ularda ijtimoiy ehtiyoj hisobga olingan holda, tarbiya qonuniyatlariga amal qilish hal etilgan. [25,28]

Tarbiyaning yana bir *qonuniyati* uning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllarining uzviy bog'liqligidir. Yoshlarga beriladigan tarbiya avvalo aniq maqsadga yunaltirilgan, shu maqsadni ruyobga chiqarishda tarbiyaning mazmuni, usullari va shakllari bir-birini to'ldirishi, takomillashtirishi kerak.

Pedagog olimlar tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, bolaning yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, hatto jinsiy tafovutini hisobga olish ham qonun hisoblanadi deb sanaydilar. Ko'pchilik manbaalarda bu xususiyatlar tarbiyaning printsiplari sifatida qaraladi. Tarbiya printsiplari qonunlar bilan bog'langan, ularning mantiqiy davomi shaklida e'tiborga olinib, tarbiya berish jarayonida amal qilinadi [28,30].

Yuqorida ta'kidlanganidek, tarbiya printsiplari tarbiya qonuniyatlarining amalda tadbiiq etilishi, mantiqiy davomi, aksi sifatida namoyon bo'lishi deb hisoblash mumkin. Chunki, tarbiya qonuniyatlariga ham, printsiplariga ham tarbiya jarayonida amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari va printsinlariga alohida e'tibor bergan holda ish ko'rilganda tarbiyalanuvchilar barkamol shaxsga aylanadi. Shuning uchun ham tarbiya printsiplarini chuqur ilmiy asoslash bilan birga ularni hayotga tadbiiq etish o'qituvchilar-tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilikning doimiy e'tiborida bo'lishi kerak. Pedagogika fanida turli olimlar tomonidan tarbiya printsiplari xar hil izohlanib kelingan. Hozirgi paytda tarbiyaning quyidagi *printsiplariga* amal qilish tavsiya etiladi:

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi;

- tarbiyada insonparvarlik va demokratik printsip;
- tarbiyaning hayot, amaliyot bilan bog'liqligi printsipi;
- tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi;
- bola shaxsini tarbiyalashda hurmat va talab birligi printsipi;
- mustaqillik, xavaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish printsipi. [25,28,30]

Tarbiyaning maqsadga qaratilganligi printsipi: tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilgandigi printsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad ma'naviy etuk, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni, komil insonni shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra tarbiya mazmuni, shakli, usullari shu maqsadga qaratilgandir. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga mo'ljallanadi, g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi. [24,28]

Tarbiyada insonparvarlik va demokratik printsipi: tarbiyaviy faoliyatni demokratlashtirish va insonparvar-lashtirish o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra uni qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o'zligini anglash huquqini ta'minlaydi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning o'ziga xosligini hurmat qilish, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratlashtirish esa uni ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. [24,28]

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi printsipi: ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millatga mansub o'quvchilarni birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. O'zbek halqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda milliy o'ziga xosligi,

ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'analariga suyangan holda ish ko'riladi [28,30]

Tarbiyada izchillik, tizimlilik – tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi printsipti: tarbiyada izchillik muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga birdaniga juda ko'p qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Bu borada izchillikka amal qilish lozim. Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning pirovard natijasiga yunaltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak. Tarbiyaviy ta'sirda izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muximdir. Bu qoida tarbiyaviy ishlar, hamda tarbiyani amalga oshiradigan barcha bug'inlarining hamjihat va bamaslahat ish ko'rishini ko'zda tutish kerak. [25]

Tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish printsipti: tarbiya murakkab jarayon bo'lib, pedagog bu jarayonda har bir o'quvchining nafaqat yoshi, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ham e'tibor qaratishi joiz. Bu borada pedagog o'quvchini tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi kerak. Pedagogdan o'quvchi bilan muloqatga kirishishdan oldin uning biologik, fiziologik, psixik rivojlanish xususiyatlarini o'rganishni talab qiladi. [24]

Bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik printsipti: bola shaxsi hurmat qilinsagina u pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchini o'ziga qabul qiladi. O'qituvchiga nisbatan mehr uyg'onadi. Undagi bor yaxshi fazilatlarni o'zlashtiradi va bilim olish samarasi oshadi. Natijada komil inson bo'lib tarbiyalanishiga zamin yaratadi. Bu borada pedagog o'quvchini hurmat qilibgina qolmay, talabchan bo'lishi ham lozim. Talabchanlik o'quvchilarda tartiblilik, o'z ishini rejalashtira olish, umumiy vazifa ichidan o'zigategishlisini ajratib olish, ma'suliyatlilik, har ishning me'yorini bilish, ko'zlagan maqsadga

erishish uchun kurasha olish kabi xususiyatlarni shakllantiradi. [24,25,28]

Mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish printsipi: o'quvchilarda yoshlikdan mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat ko'rsata olishni shakllantirish lozim. Shunga ko'ra har bir o'quvchining qiziqishi va intilishini qo'llab quvvatlash lozim, ularni o'zlari qiziqqan kasb-hunarni egallashlariga to'g'ri yo'naltirish lozim. «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bu xaqda batafsil bayon qilingan. Jumladan, «Umid» singari jamg'armalar yoshlarda tashabbuskorlik, havaskorlik mustaqillik kabi hislatlarni rag'batlantirishda, qo'llab quvvatlashda o'z hissasini qo'shmoqda. [25]

Har bir o'qituvchi-tarbiyachi bolalar nimalar ta'sirida, qaysi sharoitlarda, muhitlarda kamolga etishishi, uni amalga oshirishda qanday qoidalarga amal qilish lozimligini, qanday ta'sir ko'rsatish vosita va yo'llarini yaxshi bilmog'i lozim.

O'zbek xalqi bola tarbiyasi sohasida ulkan boy tajribaga ega. Shu bilan birga ilmiy pedagogikamiz undagi va fandagi yutuqlarga tayangan holda tarbiya usullari xaqida ma'lum to'xtamlarga kelgan. Unga ko'ra ***«metod»*** so'zi grekchadan olingan bo'lib, yo'l, usul, ma'nosini beradi. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlarda ***«tarbiya metodlari»***, ***«tarbiya usullari»*** kabi tushunchalar tez-tez uchrab turadi. [17,20,25,28,30,33,35,36]

Tarbiya metodlari va usullariga pedagog olimlar (R.Mavlonova, A.Munavvarov, O.Hasanboeva, M. Inomova, U. Nishonaliev, R. Hasanov va boshqalar) turlicha ta'rif berishgan. [25,28,30]

Ularning ta'riflaridan kelib chiqib aytish mumkinki, ***tarbiya metodlari*** – *bu barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida uning ongi, xulqi, irodasi, his-tuyg'ulariga ta'sir etish yo'llaridir.* Yana bir boshqa ta'rif, *tarbiya metodlari* – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Birinchi ta'rif aniq ma'no kasb etsada, ammo unda faoliyat bir tomonlama ta'sir kuchiga ega. Ya'ni, tarbiyachining ta'sirigina ko'zda tutilganday. Ikkinchisi esa hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro ta'sirni nazarda tutadi. [17,20,24,25,28,30]

Ta'lim metodlari kabi *tarbiya metodlari* ham alohida tarkibiy qismlarga bo'linadi, masalan, usul va uslub tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-biriga o'tib turishi mumkin. [24,25,28]

Pedagogikada *tarbiya shakllari* degan tushuncha ham yo'q emas. Masalan, o'quvchilarning ja moada individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun *tarbiya shakllaridan* foydalaniladi: sinf majlisi, yig'ilishlar, ertalabki yig'inlar, to'garak ishlari, turli xil tadbirlar. [25,28]

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy maqsadga muvofiq yo'l bilan hal qilishni tashkil etishda yordamga keladi: suhbat, hikoya, ertak, doston, bolalar adabiyoti, kitoblar, teleko'rsatuv, multipikatsion filmlar, bolalar teatri va qo'g'irchoq teatr, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari, she'riyat va boshqalar. Ammo, bu predmetlarni harakatga keltirgandagina, ulardan foydalanib, muhokama etganimizdagina tarbiya vositasi bo'la oladi. Bolalarning o'yin, mehnat, gimnastika, badiiy-estetik, sport va boshqa faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin. [24,25,28,29,30]

Ta'kidlash joizki, har qanday tarbiyaning natijasi tarbiyaviy jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq. Tarbiyachi ta'sir etishning bola shaxsiga mos vosita, eng ma'qul usullarini tanlab olisi, uning shaxsini o'zgartirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratishi zarur. Tarbiya usullari har bir bolaga, har qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishini nazarda tutadi.

Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib, har davrning ijtimoiy siyosiy hayotini o'zida aks ettiradi. Uning usullari, vositalari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi. Tarbiya har bir xalqning o'z udumi, usuli, tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi lozim. [28]

Yuqorida qayd etganimizdek, xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari va vositalaridan foydalanish ko'zda tutiladi. Ularning rang-barangligi ilmiy pedagogikani ham boyitadi.

Bola tarbiyasida xalqimiz qo'llab kelgan *milliy usullarini* quyidagicha guruhlarga umumlashtirish mumkin:

1. *Tushuntirish*: o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish va h.k.
2. *Namuna*: maslaxat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish va h. k.
3. *Nasihah berish, o'git*: undash, ko'ndirish, iltimos qilish, yolvorish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash va h. k.
4. *Qoralash va jazo*: ta'qiqlash, tana, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, ont-qasam ichirish, urish-kaltaklash va h. k. [17,19,20,33,35]

Agar sinchiklab e'tibor berilsa, ushbu milliy tarbiya usullari ketma-ketligida yaxlitlik bor. Masalan, bolaga avval tushuntiriladi, keyin namuna sifatida ko'rsatiladi, bunda ham tushunmasa, nasihat beriladi, bunga ham ko'nmasa, tushinishni istamasa jazo beriladi. Bu so'ngi chora ekanligini xalqimiz yaxshi bilgan.

Xalqimizning milliy usullari muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Tarbiya vositasi vazifasini quyidagilar o'tagan: mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, turli gurunglar, musobaqalar, turli marosim va boshqalar ham shular jumlasiga kiradi. [35,36]

Bugungi kunda o'quvchilarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi zarur. Bular o'z navbatida, yangi tarbiyaning o'zgacha muvofiq uslub va shakllarini taqozo etadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda *tarbiya metodlari* o'z xususiyatlaridan kelib chiqib bir necha (4 ta) guruhlarga ajratiladi: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar; ijtimoiy hulqni shakllantirish usullari; rag'batlantirish va jazolash usullari; o'z-o'zini tarbiyalash usullari.

1. *Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari*: suhbat, hikoya, pand-nasihah, tushuntirish.

2. *Ijtimoiy hulqni shakllantirish metodlari*: namuna, taqlid, mashq, o'rgatish, topshiriq, pedagogik talab, odatlantirish, o'rgatish, o'yin va boshqalar.

3. Rag'batlantirish va jazolash metodlari: ishonch bildirish, maqtash, sovg'a berish, maqtov yorlig'i, moddiy taqdirlash, hurmat taxtasiga chiqarish, qo'llab-quvvatlash, mas'uliyat va minnatdorchilik, musobaqa, gazeta va radioda e'lon kabi rag'batlantirish; tanbeh berish, ogohlantirish, hayfsan berish, uyaltirish, koyish kabi jazolash usullari. Ammo, jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, balki qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikki yuzlamachi bo'lib qoladi.

4. O'z-o'zini tarbiyalash metodlari: shaxsiy majburiyatlar olish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tanqid qilish, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash.

Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari guruhiga o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e'tiqod, tushuncha, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularning ongi, hislat va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu usullar orasida o'quvchilar ongiga ta'sir etuvchi va eng ko'p qo'llaniladigan usul – **tushuntirishdir**. Tushuntirishning vazifasi o'quvchilarni yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, milliy g'ururi yuksak qilib tarbiyalashda yordam berishdir. Masalan, o'quvchilarga bayroq, gerb, madhiya, Konstitutsiyaning mohiyatini tushuntirish mumkin. [17,20,24,25,28,30]

Suhbat metodi. O'quvchi shaxsini ma'naviy axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirli usuldir.

Suhbat usuli savol-javob negizida ko'rinadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning dolzarbligi, qiziqarli va kutilayotgan natijani hisobga olish kerak. Suhbat turli mavzularda uyushtirilishi mumkin: ahloqiy mavzular, estetik mavzular, siyosiy mavzular, ta'lim va bilimga oid mavzular va h. k. Suhbat davomida o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish va javob berish imkoniyatlari tug'iladi.

Hikoya metodi. Kichik yoshdagi o'quvchilar odatda hayotiy va badiiy adabiyotdan olingan hikoyalarni qiziqib tinglaydilar. Ularga ahloq me'zonlari, tarix qoidalari, Vatanimizning tabiiy boyliklari, ajoyib, mehnatkash kishilari, tarix, adabiyot, san'at haqida hikoya qilib berishi mumkin. Suhbat va hikoyalar o'quvchilarning yoshiga mos mavzularda, ular tushinadigan tilda o'tkazilishi zarur. Suhbat va hikoya mavzusini o'quvchilarning o'zlari tanlagani yaxshi. [24]

O'quvchilarda ijtimoiy xulqni shakllantirish metodlari. Psixologiyadan bizga ma'lumki, shaxs faoliyatda rivojlanadi. Qolaversa, o'quvchi uchun faqat tushunchaning o'zi etarli emas. U o'zlashtirgan, anglab etgan axloqiy-qonun qoidalariga rioya qilishi, ularga amal qilishi lozim. Shuning uchun ham jamiyat talab etuvchi xulq atvorlarni o'quvchilarda shakllantirish usullari mavjud.

Namuna. Ma'lumki, yosh bolalar kattalarga taqlid qiladilar, ularga o'xshashga harakat qiladilar. Shuning uchun ham eng avvalo o'qituvchining o'zi har tomonlama namunali bo'lishi, o'z xatti-harakatlarini to'g'ri boshqarishi lozim. Aks xolda o'quvchilarga faqat ijobiy fazilatlar emas, balki salbiy xatti-harakatlar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. [15,16]

Bolalar ongiga ilg'or kishilarning hayoti va faoliyatidan olingan ma'lumotlar, badiiy asarlardagi, kinofilmdagi va spektakldagi qahramonlar xatti-harakatlaridagi yaxshi namunalar bolalarning ongiga kuchli ta'sir qiladi.

Namunadan milliy tarbiya usuli sifatida ota-bobolarimiz usuli keng foydalanilgan. Zero, ular o'z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug' kishilardan ibrat olishga da'vat qilib kelganlar. Masalan, «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan dono xalqimiz. [28]

Mashq. Bu usul bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq ravishda va har tomonlama tashkil etish ularni ahloq mezonlari va hulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirishdir. Odatlar bolalikdan tarkib topadi va keyin mustahkamlanib boradi. Ota-onalar, o'qituvchilar bolalarda ijobiy odatlar shakllanishini kuzatib borishlari zarur va shart. [13,32]

Mashq muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotoba takrorlashni o'z ichiga oladi. Mashq va odatlantirish o'quvchi uchun ongli va ijobiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchilarda aqliy qobiliyat va axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Odat muntazam mashq orqali mustahkamlanadi. (20)

O'rgatish – ijtimoiy hulq-atvorning odatiy shakliga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar amaliy ishlardir. O'rgatish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir, o'qituvchi bu harakatlarni ko'rsatib berish, tushintirish, kuzatishi mumkin.

Tarbiyada mashq qilishning turli xillari majud: faoliyatida mashq olish, kun tartibi mashqlari, maxsus mashqlar.

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ***o'yin*** viziyaatlari ham muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalarda xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishda azaldan bolalar xalq o'yinlari kuchli tarbiya vosita va usuli bo'lib kelgan. Masalan, xola-xola o'yini, mehmon kutish va h.k [24]

Topshiriq. Mehnat topshiriqlarini jamoa bo'lib bajarish o'quvchilarda o'z kuchlarini umum ishga sarflashga, jamoa uchun mas'uliyatni xis etishga o'rganidilar. Aqliy va jismoniy mehnat qilish bolani xarakterini shakllantiradi, mustaxkamlaydi. [25,28]

Talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim usullaridan biridir. Talab – bu o'quvchining oldiga biron bir vazifani bajarishni qo'yishdir. Bu o'quvchining ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib borilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi mumkin

Rag'batlantirish va jazolash metodlari. Bu usullar o'quvchilarni harakatga keltiradi, o'z kuchiga ishonch uyg'otadi. Rag'batlantirish usullaridan foydalanish natijasida bola o'rnining olg'a siljib borayotganini ko'ra boshlaydi, xurmat qilayotganini, ishonmayotganliklarini jamoaga kerakligini, o'qituvchisini qiziqtirayotganligini anglab etadi. Rag'batlantirish bola ishonchiga, unda bo'lgan ijobiy qobiliyat va fazilatlarning kuchini e'tirof etishiga asoslangan. Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, unga quvonch keltiradi, o'quvchining yanada yaxshiroq bo'lishiga intilishga yordam beradi. [17,20,24,25,31,36]

Maktablar tajribasida ***rag'batlantirishning*** quyidagi turlari qo'llaniladi: topshiriq berish, maqtash, sovg'a berish, maqtov yorlig'i berish, moddiy taqdirlash, xurmat taxtasi, qo'llab-quvvatlash, mas'uliyat va jamoaning minnatdorligi, safarda birinchi o'rinda turish, musobaqa, gazeta va radiolarda e'lon, reja qo'yish va h. k. Bu usullarning barchasi pedagogik talablarni xisobga olgan holda qo'llanilishi mumkin. Har qanday rag'batlantirishning to'g'ri xizmat qilishi, ketma-ket bo'lmasligi qadrini oshirib maqtashga, boshqa o'quvchilarga taqqoslab ularni

kamsitishga yo'l qo'ymaslikka rag'batlantirishga bo'lgan talabchanlikni bo'shashtirmaslik zarur. [17,20,28]

Jazolash. Bu o'z harakatiga ko'ra tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo o'quvchining va butun sinf manfaati uchun qo'llanilgan eng oxirgi tarbiya usulidir. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo, urish, kaltaklash mumkin emas, bolani qo'rqitish g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi.

Maktab amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi: tanbeh berish, ogohlantirish, qoniqarsiz baho qo'yish, maktabdan chetlashish va va h. k.

Jazo yaxshi qo'llanishi lozim, qiziq ustida tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar bitta bo'lgani yaxshi, o'quvchilarning aybiga mos muvofiq bo'lsin, tez-tez qo'llanmasin, jazolovchi jazoni haqqoniyligini aniq bilsin va ular o'z ayblarini sezsinlar. Jazo jamoada muhokama etilsa, ular tomonidan shu jazo usuli qo'llab-quvvatlansa uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Har qanday jazo ham tarbiyalanuvchining jismoniy va ruhiy azob-uqibatlariga solmasligi, uni taxqirlamasligi, sha'nini bulg'amasligi kerak. [30]

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari. Bu usullar o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyoji tug'ilgan degan samara berishi mumkin. Ammo, o'quvchilarni o'z ustilarida mustaxkam ishlashga yo'llashimiz lozim.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'z ustida ishlashga o'rgatishning bir qancha usullari bor. Masalan, o'quvchiga ota-ona yoki o'qituvchi shaxsiy majburiyat berishi mumkin.

Azaldan xalqimiz o'z farzandlariga majburiyatlar bo'lib bergan. Masalan, bir farzandli uy ro'zg'or ishlaridan, yana biriga chorva ishlari, boshqasiga ovqat pishirish, ukalariga qarash majburiyatlarini bo'lib berishgan. Bugungi kunda ham o'qituvchining undovi bilan bolalarga uy-ro'zg'or vazifalari, sinf majburiyatlarini berish mumkin. Yoshi ulg'ayib borishi bilan bolaning majburiyati murakkablashib boradi, unga ko'proq e'tibor qaratilib boradi.

O'z-o'ziga hisobot berish. Biz ko'pchilik oldida, ya'ni sinf jamoasi, ota-ona va boshqalar oldida yuz berishi mumkin o'ziga-o'zi hisobot berish bolada o'z ishi uchun mas'uliyatni oshiradi, o'z xatti-harakatlari uchun o'zi javob berishga o'rgatadi, o'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha tajriba almashishga yordam beradi.

O'z-o'zini tahlil etish. Bu o'z shaxsiy fazilatlari ustida mulohaza yuritish. Masalan, men nima qila olaman, men qanday odam, men qanday o'rtoq? O'z-o'zini tahlil etish o'z xatti-harakatlari va xulq atvorlari ustida o'ylashga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga o'rgatadi.

O'z-o'zini nazorat qilish. Bu xarakterdagi, ya'ni sifatlarini aniqlash va kamchiliklar bilan kurashish maqsadida o'z xulqini doimiy yozib (nazorat qilib) borishidir.

O'z-o'ziga baho berish. Bu usul o'z imkoniyatlarini chamalab ko'rish va baholashga, chetdan o'ziga qarashga shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga ob'ektiv baho berish, o'zining hulq-atvoridan ko'nikma hosil qilmasliklari tug'ilishiga yordam beradi. [17,18,20,24,28]

Bolani o'zini to'g'ri baholashga, o'zina yuqori va past baholamaslikka o'rgatish muhimdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashga quyidagilar xizmat qilishi mumkin: aka-ukalar, ota-onalar, o'qituvchilar namunasi; bolaning maktabda va uyda aniq rejalashtirilgan kun tartibi; quvonchli istiqbol reja va h. k.

Yuqorida ta'riflab o'tilgan tarbiyaning umumiy va milliy usullari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishning barcha sohalarini qamrab olmaydi. Zero, pedagogika fani, uning tarbiya vositasi va usullari doimo rivojlanib takomillashib boradi.

Tajribada o'zini asrlar mobaynida oqlab kelgan tarbiya usullarimiz qanchalik milliy ruhiyatimiz, ma'naviyatimizga mos bo'lsa, uning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Sanab o'tilgan tarbiya usullarining asosiy qismi xalqimiz tajribasida qo'llanib kelinmoqda.

Biz tarixda misli ko'rilmagan yangi jamiyat qurmoqdamiz. Bu jamiyatning tamal toshini qo'yish bizning zimmamizga tushgun ekan, uni bajarish mas'uliyatini to'g'ri anglash, vijdon amri bilan ado etish g'oyat murakkab va sharaflı burchdir.

Ziyolilar bu burchni qanchalik iftixor bilan ado etsa, mustaqillik imoratining poydevori shunchalik baquvvat bo'ladi. Tarbiya, ayniqsa, komil inson tarbiyasi bugunimiz uchungina emas, balki kelajagimizning ham hayot-momot ishidir. Shunday ekan biz tarbiyaga e'tibor berishimiz kerak.

Fikrimizcha, insonni komillikka eltuvchi psixologik sifatlarning poydevori oiladan boshlanadi va oila muhim rol o'ynaydi. Bola tarbiyasi uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisidan tashqari ota-onaning o'rni ham juda muhimdir. Ota bolani komillik sari etaklovchi bosh tarbiyachi bo'lib, unga xos bo'lgan barcha insoniy sifatlari farzand jismiga jo bo'lib boraveradi. Har bir oilada dunyoga kelgan va o'sayotgan har bolaga nihoyatda e'tibor bilan munosabatda bo'lish va odobli bo'lish fikri bo'lmog'i darkor. Ota-onaning o'z farzandining ichki dunyosiga kirib borishi, xatti-xarakatlarining sabablarini tushuntirish, qiziqishi, xarakter xususiyatlarini chuqur anglashi zarur. Buning uchun esa bola doimo ota-onasining kuzatuvida bo'lmog'i lozim. Bola harakatini kuzatish - uning ko'ngil qa'riga - yo'ldir. [27,31]

O'zbek oilasiga xos tarbiyaviy tadbirlarning mohiyati shundaki, bu oilalardagi tarbiyaviy tadbirlarning barchasi uzluksizligi, davomiyligi, serjiloligi bilan bola ongiga tez etadi, uning odob-axloqi, ma'naviy, ruhiy omilini o'zgartiradi va komillik sari etaklaydi. [27]

Bu jihatdan har bir o'zbek oilasi o'ziga xos tarbiyaviy usul va vositalari, urf-odati, qadriyatları, an'anasi bilan alohida olam sifatida namoyon bo'ladi.

Tabiiyki, qaysi oilada ota-ona ma'naviy boy, yuqori ahloqli, baland e'tiqodli va madaniyatli bo'lsa o'sha oilada tarbiyaviy tadbirlar yaxshi samara beradi. Yana bir jihati shundaki, oila a'zolarining turmush tajribasi, madaniy saviyasi qanchalik boy bo'lsa, tarbiyaviy ishlari darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

O'zbek oilasiga xos muhim xususiyatlaridan biri ko'pbolalilik hisoblanadi. Kam bolali oilalarga nisbatan ko'pbolalik oilalarda tarbiyaviy tadbirlar yaxshi

samara beradi. Bu fikr to'g'ri, chunki ko'pbolali oilalarda bolalar o'zaro g'amxo'rlik va samimiy munosabat tufayli bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, taqlid va namunaviylik usullaridan samarali foydalanadilar. [27,28]

Turmush tajribasidan ma'lumki, bolalar bilan ko'proq ona birga bo'ladi. Ona va farzandlararo munosabatlar ota va farzandlararo munosabatlardan bir necha barobar ko'p bo'ladi.

Bu muloqotlar mazmuni va xilma-xilligi jihatdan ham ona zammaga mas'uliyat yuklaydi. Demak, ona farzandlararo munosabatlararo jarayonida ko'ngilxushlik va mojarolarning hammasiga shohid bo'ladi. Muhimi, ona bu jarayonlarda har bir farzandga xos yaxshi va yomon xislatlarni, qiziqish, qobiliyat, intilishlarini yanada mukammal o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, ularning harakterini tushinishga ularning har birining qalb qa'riga kirishga harakat qiladi.

Bolaning harakatiga tez va keskin baho berish yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Agar bolaning o'z xatti-harakatiga o'zi mustaqil baho bersa yuz bergan holatning (ijobiy-salbiy) mohiyatini o'zi anglab etsa, bu xol so'zsiz unda ijobiy harakatlarga moyillik qilishni o'stiradi.

Bolani komillik sari undovchi muhim vositalardan biri oiladagi kattalarning, birinchi navbatda, ota-onaning ibratidir. Biz doimo bolalarni kattalardan **ibrat** olishga da'vat etamiz. Darhaqiqat, **ibrat** olishga undagi ota-bobolarimizdan qolgan ajoyib tarbiya usuli hisoblanadi. [10,12,19,25,27]

Shuning uchun ham komil inson shakllanishining asosiy manbai oila bo'lib, farzandlarning kelajakdagi baxt-saodatiga erishish oila asosida vujudga keladi. Bu borada buyuk allomalarimiz Yusuf Hos Hojibning quyidagi fikrlari bugunimiz uchun o'ta muhimdir. Uning fikricha, oiladagi rostlik, hayo, ezgulik va go'zal hulq, yosh avlodning baxtiyor kelajagiga mustahkam zamin yaratadi (*Baxt-saodatga etaklovchi bilim.* - T., 1990, 38-bet).

Ko'rinib turibdiki, ulug' allomaning bu fikrlari bizning davrimiz, bugungi hayotimiz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. Sog'lom avlod kelajagimiz ustuni hisoblanar ekan, sog'lom avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk oilagina etishtira oladi.

O'quv kuni uzaytirilgan guruhlarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bolalarda insoniy fazilatlarni tarkib toptirishda tarbiyachining mahorati, uning ota-onalari bilan yaqindan aloqada bo'lishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki tarbiyaviy ish oila bilan maktab hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, mas'uliyatli va sharaflil vazifadir. Bu vazifalarning to'g'ri bajarilishidan ota-onalar ham, maktab ham, jamoatchilik ham manfaatdordirlar. [24,27]

Shuning uchun tarbiyachi bilan ota-onalar o'rtasida bo'ladigan munosabatlar o'zaro kelishuv, hurmat asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin, bu o'rinda tarbiyachi kishi ruhiy xolati haqida bilimli sifatida bolalarga ham, ota-onalarga ham ongli munosabatda, madaniy muomilada bo'lishi zarur. [10,12,19]

Ayrim tarbiyachilar ota-onalar bilan faqat yig'ilishlardagina uchrashadilar. Shuning uchun bir-birlariga o'zaro obro'-e'tiborlari, bir-birlariga o'zaro obro'-e'tiborlari, bir-birlariga nisbatan hurmat etarlicha bo'lmaydi. Ana shunday salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun har bir ota-ona bilan yaqindan munosabatda bo'lib, o'zaro maqsadlari birligini tushintirish zarur.

Ehtimol, tarbiyachi o'quvchining uyiga birinchi marta borganida uning ota-onasi yaxshi kutib olishmas. Ko'pincha o'qituvchining odob-axloqi, o'zlashtirishi yomon bo'lgan oilada ona shunday bo'lishi mumkin.

Shuning uchun o'qituvchi birinchi uchrashuvga alohida tayyorgarlik ko'rib o'quvchining dars tayyorlaydigan xonasi, uydagi xo'jalik ishlariga ishtiroki, nimalarga ko'proq qiziqadi, kun tartibi singari masalalar bo'yicha fikr yuritishi zarur. Ba'zi tarbiyachilar ota-onalarni maktabga kelishi uchun tarbiyaga xilof ish tutadi. Masalan, «Bolaning papkasi, kundalik daftarini olib qo'yib, ota-onangni aytib kelsang beraman» - deydilar. Bunday muomala ota-onalar bilan tarbiyachi o'rtasidagi munosabatni yomonlashtiradi. Oilada bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan omillar asosan ota-onalarning pedagogik bilimlari etarli emasligidan shaxsning rivojlanishi qonunlarini tushunmasligidan kelib chiqadi. Pedagogik tashviqotning barcha turlari ota-onalar tarbiya sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishi, o'z farzandlarini yanada yaxshiroq o'rganishlariga yordam beradi. Bu tarbiyaviy ishlarimizni talab darajisiga chiqishda muhim o'rin tutadi.

II bob. KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNI HAR TOMONLAMA TARBIYALASH JARAYONINI TASHKIL ETISH SHAKL, VOSITA VA USULLARI

2.1. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash imkoniyatlari

Pedagogikada ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, uni birga qo'shib olib borish asosiy tamoyillardan biridir. Maktab bu – ta'lim-tarbiya o'chog'idir. Ammo, tarbiyaviy vazifalar asosan odobnoma darslari yoki darsdan tashqari sharoitlardagina amalga oshirilmaydi. Vaholanki, tarbiyaning maqsad va vazifalarini hal etishda asosiy tashkiliy shakl – bu dars, ta'lim jarayonidir.

O'quvchilarni tarbiyalash vazifalarini faqat odobnoma darslarida emas, har qanday fanni o'tish jarayonida amalga oshirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim va tarbiya bu yaxlit, bir butun pedagogik jarayondir.

Boshlang'ich sinflarda barcha fanlarni o'qitishda didaktik maqsadlar bilan bir qatorda o'qituvchi tarbiyaviy maqsadlarni ham aniq belgilab olishi va ularni hal etishi lozim. Masalan, matematika – aqliy tarbiya, o'qish, ona tili – axloqiy tarbiya, tabiatshunoslik – ekologik tarbiya, mehnat – iqtisodiy va mehnat tarbiyasi, musiqa – estetik tarbiya, tasviriy san'at – badiiy tarbiyaning asosiy *vositalari* bo'lsada, boshqa tarbiyalarni ham amalga oshirish imkoniyatlari katta, ular bir-birlarini to'ldiradilar.

Amaliyotda ko'pchilik boshlang'ich sinf o'qituvchilari nafaqat tarbiyaviy, hattoki ta'limiy maqsadlarni ham oldindan aniq belgilab olishda qiynaladilar. Ularning dars-reja ishlanmalarida tarbiyaviy maqsadlar qo'yilmaydigan xollari ham uchrab turadi. U belgilab olingan taqdirda ham umumiy harakterga ega bo'ladi. Masalan, darsning tarbiyaviy maqsadi «o'quvchilarni axloqiy tarbiyalash», «ekologik tarbiya berish» kabi umumiy tushunchalar bilan chegaralanadi. Bir soatlik dars davomida butun bir ekologik tarbiya maqsadiga erishish mumkin emasligini har qanday pedagog tushunadi. Demak, tarbiya maqsadi aniq qo'yilishi, u darsning o'quv materialini mazmunidan kelib chiqib, oldindan aniq belgilanishi lozim.

Tarbiyaviy maqsadlar *dars jarayonida* qanchalik aniq bo'lsa, unga erishish yo'llarini tanlash ham ancha qulay bo'ladi. Yuqorida tarbiya maqsadlariga erishish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisi suhbat, hikoya, namuna, uyaltirish, topshiriq, mashq, rag'batlantirish kabi tarbiya usullaridan foydalanishi mumkin. Masalan, «Sen ham o'rtog'inga yoki ukanga sumkangdan, qo'lingdagi shirinliklardan berasanmi yoki bermaysanmi?» degan savol bilan murojaat qilib, o'qituvchi ayrim o'quvchilardan aniq javob olishi, ayrimlarini uyaltirishi mumkin.

Matematika darslarining turli xarakterdagi o'quv materiallari mazmunidan kelib chiqib axloqiy tarbiya vazifalarini bajarish imkoniyatlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika darslari o'quv materiallari bilan yaqindan tanishgan holda ularning tarbiyaviy xarakterini aniq belgilab olishi va tarbiyaning samarali usullarini to'g'ri tanlashi lozim. Biz pedagogik faoliyatimiz davomida har bir boshlang'ich matematika darsining tarbiyaviy maqsadi va vazifalari aniq belgilab olib, tarbiya usullaridan unumli foydalandik.

Ma'lumki, *“O'qish” va “Ona tili”* darslari o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra kuchli axloqiy tarbiya vositalaridan sanaladi. Ushbu fanlar dars mavzulari, Vatanni madh etuvchi, do'stlik, to'g'rilik, halollik, jasurlik, mardlik, ezgulik singari g'oyalarni ilgari suruvchi o'quv materiallariga boydir. Undagi ertak, doston, hikoya, rivoyat, maqol, topshiriq, she'r, badiiy asar materiallari, matnlarda kishining insoniy fazilatlarini yuksaklarga ko'tarilib, salbiy xislatlar esa qoralanadi. O'qituvchi bolalarning badiiy qahromonlar ijobiy fazilatlaridan namuna olishlari, salbiy fazilatlaridan esa nafratlanishlari, ularni qarashlarini chuqur tushunib etishlari uchun barcha milliy tarbiya usullaridan foydalanishi kerak.

Tabiatshunoslik darslari ham kichik yoshdagi o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tushunchalarni, go'zal xulq-atvor elementlari, axloqiy-estetik did va boshqa ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish imkoniyatlariga ega. Albatta, buning uchun o'qituvchi tarbiyaning vosita va usullaridan o'rinli foydalanishi zarur bo'ladi. Jumladan, ijtimoiy ongini, hulq-atvorni, o'z-o'zini tarbiyalash va rag'batlantirish usullari bunda yuqori samara beradi.

Mehnat darslarida tarbiyaning nafaqat suhbat, tushintirish, balki namuna, mashq, topshiriq, maqtash, o'rgatish, odatlantirish, musobaqa kabi usullari yuqori natijalar beradi. Natijada o'quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatga ongli va axloqiy munosabat, intizomlilik, mehnatdan qoniqish hosil qilish, mehnat kishisi va u yaratgan mahsulotlarga hurmat kabilar shakllanadi.

Musiq va tasviriy san'at darslari o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda judda katta ahamiyatga ega. Zero, turli mavzulardagi kuy va qo'shiqlar, tasviriy janr asarlari o'quvchilarda tabiatga, Vatanga, millatga, boshqa kishilarga, mehnatga nisbatan ijobiy munosabatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Odobnoma darslari o'z mavqeidan kelib chiqib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining mahorati, axloqiy tarbiya metodlaridan ustakarona foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz ta'lim-tarbiya bobida ulkan me'ros yaratib, takomillashtirib, yuzlab avlodlarni insonparvarlik, ma'rifat-parvarlik, oqibatlilik, odoblilik, mehnatsevarlik, mardlik kabi umuminsoniy qadriyatlar va fazilatlar ruhida tarbiyalab kelgan. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida yaratilgan boy pedagogik me'rosni o'rganish va yosh avlodlarimiz ongiga singdirish vaqti etdi.

Abu Ali Ibn Sino jamoadan, jamiyatdan ajralib, tarbiya topgan bolaning baxtsiz bo'lib qolishini ta'kidlaydi. Inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordir. Farobiy fikricha, insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir.

Tarbiyaviy soatlarni yaxshi uyushtirish orqali yuqorida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. Bunday darslarning ta'sirli, sifatli bo'lishi o'qituvchining har taraflama puxta tayyorgarligiga bog'liq. Aksincha, rejasiz o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning u yoki bu sohaga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi va zaiflashishiga olib keladi. Bunday muhim talablardan

yana biri mashg'ulotlarning o'quvchilarning yoshiga, individual xususiyatlariga va bilim darajalariga mos bo'lishidir.

«*Odobnoma*», «*O'qish*» darslaridan namunalar keltiramiz.

Mavzu: Ajdodlar – faxrimiz.

DTS talablari:

Bilim: Hikoyalar haqida ma'lumotga ega bo'lish;

Ko'nikma: matndagi so'z, ibora, gaplarning ma'nolarini izohlay olish;

Malaka: matn mazmunini reja asosida to'liq yoki qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash.

Dars turi: aralash dars.

Dars jihozi: rasmlar, slaydlar.

Dars metodi: savol-javob, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, ijodiy mehnat, harakatli o'yin.

Integratsiya: o'qish, odobnoma, ona tili, kundalik hayot.

Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari: o'quvchilarda ravon o'qish va qayta hikoyalash ko'nikmalarini o'stirish; ajdodlar merosiga hurmat ruhida tarbiyalsh; mustaqil fikrlashga yo'llash.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

Kichik guruhlarga birlashish. O'quvchilarga ajdodlarimiz nomlari asosida guruhlarga birlashadilar. Rasmlarga ko'ra birlashib, o'z guruhlarini tashkil etadilar:



1. Kirish suhbat.

- Aprel oyida qaysi mutafakkirimizni tavallud kunlarini nishonladik?
- Amir Temur.

- Hikmatli, ibratli soʻzlaridan namunalar ayting.

II. Uy vazifasini soʻrab, baholash.

1. Naim Karimovning “Rivoyat” hikoyasini qayta soʻzlab berish

III. ”Ajdodlar – faxrimiz” boʻlimi umumlashtirish.

1. “Aqliy hujum” metodi asosida: taniqli shaxslarni ayting.

Amir Temur, A.Navoiy, Z.M.Bobur.....

Kichik guruhlarda ishlash metodi asosida: Guruhlarga savollar berish:



Qogʻozlarga nomlari yozilgan mavzular asosida oʻqigan hikoyangiz va yana qoʻshimcha bilgan maʼlumotlaringiz asosida mavzuni keng ochib bering.

1-g: Alisher Navoiy

2-g: Zahriddin Muhammad Bobur.

3-g: Abu Rayxon Beruniy

4-g: Toʻmaris



1. A. Navoiyning qalamiga mansub



Odami ersang demagil odami,

Onikim yo`q xalq g`amidin g`ami, -

Hikmatining bo`limdagi qaysi hikoyalarga aloqasi bor?

Kichik guruhlarda ishlash asosida taqdimot o`tkaziladi. O`qituvchi umumlashtirib, xulosalaydi.

Dam olish daqiqasi

“Shahzoda va malikalar” harakatli o`yini.

Sinf o`quvchilari 3 tadan guruhchaga birlashtirilib, 2tasi ark (bir-birining qo`liga qo`lini qo`ygan holda ark – saroy hosil qiladilar), o`rtadagi o`quvchi yo shahzoda yo malika vazifasini bajaradilar, boshlovchi “podsho” vazifasida bo`lib farmonlar beradi, ya`ni, “ – Malika va shahzodalar sayrga chiqinglar”, ”malika vashahzodalar” farmonga ko`ra arkdan chiqib, ”sayr” qilishadi. ”Malika va shahzodalar saroyga qayting“ – farmonidan so`ng barcha saroyga qaytishga harakat qiladi, podsho ham shahzoda yoki malikalardan birining o`rniga kirib oladi, saroydan tashqarida qolgan boshlovchi “podsho” vazifasini o`taydi va h.k.

2. ”Ijodiy mehnat” metodi asosida o`tilgan mavzular asosida quyidagi topshiriqlar tanlanib, o`quvchilar bajaradilar va taqdimot o`tkazadilar.

1. Sahna ko`rinishi



2. Maqollar:

Bilimli xor bo`lmas.

O`z uying - o`lan to`shagging.

O`zga yurtda shoh bo`lguncha, o`z yurtingda gado bo`l.

Oz-oz o`rganib dono bo`lur.

3. She`r va qo`shiqlar:


Boshni fido ayla ato boshig`a

Jismni qil sadqa ano qoshig`a

Tun-kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

1. Rasm chizish.



V. Dars yakuni.

1. O`quvchilarni baholash va rag`batlantirish.

2. Uy vazifasi berish.

1. "El sevgan kishilar" mavzusida insho yozish.

2. Mavzuga oid rasm cizish, she`r va maqollar yod olish.

Mavzu: Bahor ta'rifida.

Darsga qo'yilgan **DTS talablari:**

1. *Bilim:* asar mazmunining mustaqil tahlil qilish.
2. *Ko`nikma:* matndagi so'z, ibora, gaplarning ma'nolarini izohlay olish.
3. *Malaka:* matn mazmunini reja asosida to'liq yoki qisqartirib, ijodiy qayta hikoyalash.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning uslubi: munozara, savol-javob, klaster va boshqa metodlar.

Darsning jihozi: navro'z bayrami, bahorgi ishlar aks etgan rasmlar, magnitafon, sahna ko'rinishi uchun maretiallar, bug'doy, sumalak, rebus-boshqotirma, gullar.

Darsning ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlari: bahor haqidagi fikrlarni kengaytirish; milliy bayramlarimizni, urf-odatlarimizni sevish va asrashga, gullarni, qushlarni, tabiatni sevishga o'rgatish; navro'z, bahor haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish; o'quvchilarda bog'bonchilik kasbiga muhabbat uyg'otish.

Darsning borishi

1. Salomlashish. Sinf xonasining toza va ozoda ekanligini aytib, ekologik jihatdan talabga javob berishini aytilish. Bugungi darsni do'stona va hamkorlikda boshlashni aytilish.

2. O'quvchilarni guruhlariga bo'lish.

1-guruh "Boychechak"

2-guruh "Nargiz"

3-guruh "Binafsha"

4-guruh "Lola"



- «Mening ismim va bahorning menga yoqqan tomonlaridan biri.....»

O'quvchilar navbat bilan o'zlarini tanishtiradi.

- "Mening ismim Gulbahor ,menga bahordagi kamalak yoqadi" kabi..



2. *Yangi mavzu*: Bahor ta'rifida. Yusuf Xos Hojib.

Mavzuni o'qituvchi boshlab beradi o'quvchilar davom ettiradilar.

Lug'at ishi:

Nasim – shabada, shamol

Firdavs – bog`, jannat bog`i


Chin – Xitoy

Alvon – qizil

Harir – yupqa

Mushk-anbar – atir.

3. *“Bahor”* so'zini matn asosida klaster metodida tarmoqlash.



4. *Ko'rgazmalar bilan ishlash.*



5. *Darslik bilan ishlash.*

«Gullar terish» o'yini.



Magnitafon tasmasidan darslikdagi mavzuning hohlagan joyidan o'qib eshittiriladi. O'quvchilar tezlik bilan shu joyni topib, o'qishda davom etishlari kerak.

6. **Dam olish daqiqasi.**

O'quvchilar musiqa sadosi ostida harakatlar qiladilar.

7. **Sahna ko'rinishi.** "Bahor ta'rifida" matni asosida.

Guruhlar izoh berishadi.

8. **Rebus.**



- GULLOLA,



- OBINON.KABI

9. *Ob-havo darakchilari.*

O'quvchilar ob-havo darakchilari haqida ma'lumot beradilar.

10. **Savollarga javoblar.**

1-g: O'lkamizga bahor kelganini qayerdan bilamiz?

2-g: Bahorda janubdan qanday qushlar uchib keladi?

3-g: Siz bahorda dalaga chiqqanmisiz?

4-g: Dehqonlar bahorda qanday ishlarni bajaradilar?

O'quvchilar bahor fasli bilan bog'liq bo'lgan maqollardan na'munalar aytishadi.

Har bir topshiriqdan so'ng o'quvchilar rag'batlantirilib boriladi.

11. Guruhlar ishini yakunlash.

12. Uyga vazifa.

«Bahor ta'rifida» mavzusini ifodali o'qib, mazmunini so'zlab berish, rasmlar chizish.

2.2. Sinf dan va maktab tashqari ishlarda kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash shakl, vosita va usullari

Kichik yoshdagi o'quvchilarini har tomonlama kamol toptirishda sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar muhim omil va vosita bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish, undan samarali foydalanish zarur. Sinf rahbarlari va ota-onalar bu masalaga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir.

Amaliyot shundan dalolat beradiki, boshlang'ich sinf rahbari o'quvchilar jamoasini shakllantirish, ularning darsdan bo'sh paytlarini samarali tashkil etish faoliyatini o'zining ma'naviy-ma'rifiy ish rejasi asosida olib boradi va tashkil qiladi.

Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z ma'naviy-ma'rifiy ish rejasida tarbiyaning barcha tarkibiy qismlarini (g'oyaviy-mafkuraviy, axloqiy, estetik, aqliy, huquqiy, ekologik va h.k) kiritish bilan bir qatorda tashkiliy tadbirlarni ham ko'zda tutadi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: bayram kunlariga bag'ishlangan tadbirlar, to'garaklar, ko'riklar, musobaqalar, muzey, tsirk, kino, teartlarga borish; sayohatlar, taniqli kishilr bilan uchrashuvlar; suhbatlar va munozaralar; badiiy faoliyat turlari va boshqalar.

Tarbiyaning ushbu tashkiliy shakl va vositalari o'z-o'zidan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatavermaydi. Buning uchun o'qituvchi-tarbiyachi o'quvchilarning his-tuyg'ulari, hulq-atvori, irodasiga ta'sir ko'rsatuvchi tarbiya usullaridan unumli foydalanishi zarur.

Yangi yil, Navro'z, mustaqillik, Alifbe, 8-mart kabi bayram tadbirlariga tayyorgarlik o'tkazish jarayonida boshlang'ich sinf rahbari hikoya, tushintirish, nasihat, rag'batlantirish, maqtash, namuna, mashq, o'yin topishmoq, tanbeh berish, o'z-o'zini tarbiyalash usullarini tanlashi to'g'ridir.

To'garaklar, ko'rik, viktorina va musobaqalarni tashkil etishda ham tarbiyachi o'quvchilarga ijobiy ta'sir etuvchi usullarni tanlaydi: tushintirish, talab, musobaqa, namuna, mashq, topshiriq, maqtash, qo'llab quvvatlash, rag'batlantirish va h. k.

Biz amaliy faoliyat ko'rsatadigan Sirdaryo viloyati Guliston shahar ...-o'rta umumta'lim maktab ta'lim muassasasida bir necha to'garaklar, bayram tadbirlari, musobaqalar, ko'riklar, sayohatlar tashkil etiladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar bunga katta qiziqish bilan intildilar.

Boshling'ich sinflar o'rtasida «Kamtarlik», «Nafosat», «Odob-axloq» mavzularida viktorina o'tkazdik. Viktorina quyidagi shartlarni o'z ichiga oladi:

- odob-axloq mavzusida sahna ko'rinishi;
- savollarga to'g'ri javob berish;
- bahor mavzusida rasm chizish;
- xalq maqollarini bilish;
- odob-axloq haqidagi Hadislar.

Viktorinaning birinchi shartida o'quvchilarni o'z hayotlari, maktab hayoti voqeylikdan sahna ko'rinishlari bajarishadi. Sahnada yuz berayotgan voqeyliklar o'quvchilar his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi, yomon hulq-atvorga ega bo'lgan obrazlarga nisbatan nafrat, ijobiy fazilatlar xatti-harakatlariga havas uyg'otadi. Bunda namuna, taqlid usullari qo'llaniladi.

Viktorinaning ikkinchi sharti ham o'quvchilardan ziyraklik, hushyorlik, topqirlik, talab etadi.

Viktorinaning uchinchi shartini bajarishda o'quvchilarga rasm chizish, mashq, topshiriq berish singari tarbiya usullaridan foydalandik.

Viktorinaning to'rtinchi shartiga ko'ra bir tomondagilar biror bir xalq maqolini bosh qismini aytadilar, ikkinchi tomondagilar uni davom ettiradilar. Bu shart o'quvchilardan o'zbek xalq maqollarini puxta bilishni talab etishi bilan bir qatorda, ularda topqirlik, hozirjavoblik, mustaqil fikrlash, mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, xalq maqollarining mazmun va mohiyati esa o'quvchilarning har tomonlama kamolga etishishlariga ta'sir ko'rsatadi.

Darsdan tashqari tashkil etiladigan har qanday tadbir tarbiya vositalaridan foydalanishni o'quvchilar bilan birga uni taxlil etishni, u haqda mulohaza yuritishni, suhbat o'tkazishni taqozo etadi. Shundagina u tarbiya vositasi bo'lib xizmat qila oladi va o'quvchilarga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Boshlang'ich sinflarda tadbirlarni tashkil qilish, ularni o'tkazish o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bunday tadbirlar, ertaliklar, sahna ko'rinishlari o'quvchilarning qobiliyatlarini oshirib, ularning iqtidorlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bayram tadbirlari o'quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiya olishda, ularga go'zallik tuyg'ularini shakllantirishda yaxshi samara beradi. Tadbirlarda barcha o'quvchilar qatnashib she'rlar, qo'shiqlar aytib, o'zlarining qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

Tadbirlarni, ya'ni bayram tadbirlariga «Sog'lom avlod - bizning kelajagimiz», «Ustozlar - sizga ta'zim», «Vatanim - hurliging muborak», «Savodxonlik bayrami» deb nom berish ham mumkin.

Bu tadbirlar kichik yoshdagi o'quvchilar va yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida ham bo'lishi mumkin.

Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun darsdan tashqari olib borilayotgan mashg'ulotlarga o'quvchilarga bebaho ma'naviy merosimiz haqida ma'lumotlar berish va shu orqali boy ma'naviyatga hurmat-e'tibor ruhini singdirish muhimdir.

O'zbek xalqining maqollari, hikmatli so'zlari, allomalarning o'g'itlari ana shu jarayonga xizmat qiladi. Zero, maqol va hikmatlarda milliy istiqlol mafkurasining tarixiy asoslari mujassamlashgandir. O'zbek tilini o'rganish jarayonida biz kichik yoshdagi o'quvchilarga ham ana shu qadriyatlarni singdiramiz.

Kichik yoshdagi o'quvchilarga darsdan tashqari mashg'ulotlarda, mavzuga mos xalq maqollarini eslab aytishga odatlantirishda «Zarbulmasal» o'yinining ahamiyati katta. «Zarbulmasal» maqollar topish o'yini bo'lib, undan darsning mustahkamlash bosqichida, ba'zan esa kirish mashg'ulotida ham foydalanish mumkin. Chunki, maqol xalq donishmandligining lo'nda va ixcham ifodasi sanaladi.

Ular o'quvchini izchil, mantiqiy fikrlashga, maqsadini qisqa bayon etishga o'rgatadi. Maqollar o'zbek tilining eng boy, go'zal, nozik badiiy xususiyatlarini

bilib olishida va so'z boyligini oshirishda katta yordam beradi, o'quvchilar nutqini o'stiradi.

O'zbek xalq maqollari turli mavzular asosida o'rganilishi mumkin. Shuningdek, darsdan tashqari mustaqil yoki ijodiy ish sifatida o'quvchiga bir necha maqollar mazmuniga mos keluvchi suratlarga sharh yozdirish ham foydadan holi emas.

«Bulbul chamanni sevar - odam Vatanni», «Daraxtni er ko'kartiradi, odamni el ko'kartiradi», «Ona yurtning - oltin beshiging», «Eli baquvvatning, beli baquvat», «Oltin olma - duo ol», «Qo'shning tinch - sen tinch», «Mehnatdan kelsa boylik - turmush bo'lar chiroylik», «Mehnat - mehnatning tagi rohat», «Mehnat qilsang rohat ko'rasan», «Odam vatanni sevar - bulbul chamanni» kabi maqollarni o'qib berish maqsadga muvofiqdir.

Ularni o'rgangan o'quvchi kelasi darsga o'zi ham mustaqil ravishda shu mavzudagi maqollardan topib keladi va ularni izohlab beradi.

O'yin paytida suhbatdoshiga ta'sirchan gap aytish uchun qaysi maqolni keltirgan ma'qul degan topshiriq ham beriladi. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun bu topshiriq zehni o'tkirlilikni, hozirjavoblikni, izlanuvchanlikni, qiziqishni, mas'uliyatni sezishni taqozo etadi.

«So'z ko'rki - maqol» deb nomlangan ko'rik tanlovlar, intellektual musobaqalar o'tkazish mumkin. Bu musobaqalarda maqolning tub ma'nosini tushunib etgan, eng ko'p maqol biladigan, uning ahamiyatini sharhlab beradigan o'quvchilar alohida rag'batlantiriladi. Guruhlar bu musobaqalarga maqollar mavzusida devoriy gazetalar, albomlar, bukletlar va tasviriy ko'rgazmalar bilan keladilar. Topishmoqlar va tez aytishlar, erkalamalar, ovuimachoqlar kabi ixcham janrlardan o'rinli foydalana olish ham yaxshi tarbiyaviy samara beradi. Bunday tanlovlar har doim ham kichik yoshdagi o'quvchilar tarbiyasiga juda katta ta'sir o'tkazadi, ularning fikr doirasini kengaytiradi.

Maktab yoshidagi o'quvchilarga faqatgina maktabda olib borilayotgan tarbiya, dars, mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmay, oilada ham o'quvchilar uchun

o'z ta'sirini o'tkazadigan sharoit, muhit, tarbiya, munosabat ham kichik yoshdagi bolalar uchun katta ta'sir o'tkazadi.

Ta'lim tizimining yutug'i – bu jamiyatga teran fikrlovchi, mustaqil ish yurituvchi o'ziga ishongan shaxsni etkazib berish bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda ta'limning samaradorligini ta'minlash jarayoni nafaqat unga qabul qilinayotgan bolalarning aqliy va jismoniy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat, balki ularning ichki dunyosi, ruhiy olami, qiziqish va intilishlari, umuman barcha muammolarini o'rganishni taqozo qiladi. Hurmatli Prezidentimiz «Sog'lom avlod dunyoga keladi», deb ta'kidlaganidek, amaliyotchi psixologlar bola tarbiyalanayotgan oilaning jamiyatdagi o'rni, undagi psixologik muhit, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, bolaning ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillariga munosabati va aksincha ularning bolaga munosabati, uning oilasidagi hayotga moslashishi, uni shaxslararo munosabatlarni qanday idrok qilishini ham e'tiborga olishlari lozim. Chunki, bu omillar sog'lom avlodni shakllashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kichik yoshdagi bolaning onasiga nisbatan bo'lgan hissiy munosabatlari otaga qaraganda yuqoriroqligi bu davrda bolaning asosan ona ta'sirida bo'lishligi bilan bog'liq va umumlashgandir.

Hozirgi zamon o'zbek oilasida ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda an'anaviy yondashuvlar bilan birga, ijtimoiy hayotimizning yangi ishlab chiqarish munosabatlari, ilg'or texnologiya-larning odamlarga qo'yadigan talablaridan kelib chiqadigan ayrim o'zgarishlarning ta'siri ham sezilib turadi. Ularning borligi o'zini yaqqol isbot qilib beradi.

Hozirgi zamon oilalarida ota-onalarning aksariyati davlat ishlari bilan bandligi sababli o'g'il bolalar uchun oilada ota-onalari o'zaro muloqotda bo'luvchi asosiy oila a'zolari hisoblanadi va ular o'zlarining ko'p vaqtlarini ukalari bilan birga o'tkazadilar. Bola o'zligini anglay boshlashidanoq, o'z aka-opalari qurshovida bo'lar ekan, keyinchalik ham, ya'ni maktabga borgan va undan keyingi davrlarda ham unga nisbatan hissiy yaqinlikni his qilaveradi.

Bolaning bir hovlida buva-buvi va boshqa qarindoshlari bilan birga yashashi ularga nisbatan bo'lgan munosabatlarning o'ziga hos tarzda shakllanish imkonini beradi.

Bolalarning barchasi ijtimoiy-tarixiy, etnik omillar ta'sirida bo'ladi. Ilgaridan qishloqda yashagan, u erning sharoiti muhitiga o'rgangan o'zbek oilalarida ijtimoiy muhit ta'sirida etnik qadriyatlar ahamiyati katta bo'lgan.

Qishloqda o'qituvchi, ustozga nisbatan hurmat shahardagiga nisbatan ancha yuqori. Qishloqdagi ota-onalarning o'qituvchiga nisbatan ijobiy munosabati, shubhasiz, farzandlari hulqiga ham ko'chadi. Bundan tashqari bolalarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi faoliyatida ham o'qituvchi, tarbiyachilarning ishtiroki ko'proq kuzatiladi.

Shahar sharoitida esa bolaning bu faoliyatini tashkil qilish boshqa madaniy-ma'rifiy muassasa xodimlari zimmasida bo'ladi.

Bu kabi omillar shahar bolalarida o'qituvchiga nisbatan hissiy yaqinligining qishloqlik tengdoshlariga qaraganda sustroqligiga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek har bir kichik yoshdagi boshlang'ich sinflarda o'g'il bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ham, o'quv materiallarini o'zlashtirishi ham qizlarga nisbatan qiyinroq kechadi.

Maktab sharoitiga moslashish, u erdagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida yuzaga keladigan «qiyinchiliklar» bu davrda o'qituvchi siymosini o'g'il bolalar tomonidan salbiyroq qabul qilinishiga sabab bo'ladi.

Turli axborotnomalarga boy, urbanizatsiyalashgan shahar sharoiti u erda o'sayotgan bolalarda qiziquvchanlikning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek oilasining etnik xususiyati nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda oilada o'g'il bolalarni «maskulizm» (ya'ni erkak kishining etakchiligi, ustunligi) ruhida tarbiyalanishi ularning hayotida ustunlikka va etishmovchilikka intilish xususiyatlarini voyaga etishiga sabab bo'ladi.

Haqiqatdan ham o'zbek oilalarida qiz bolalarni murg'akligidanoq tergab doimo nazoratda ushlab turish, o'z holicha o'rtoqlari bilan sayr-sayohatga chiqib

ketishiga yo'l qo'ymaslik o'z bilishicha ish qilmaslik kabilar xosdir. Qiz bolaga nisbatan bunday ta'qiqlarning ko'proq «tadbiq» qilinishi, ularda frustrativ munosabatlarning o'g'il bolalardagiga nisbatan kuchliroq shakllanishiga asos bo'ladi va ularda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, qishloq joylarida tarbiyalangan bolalar (ayniqsa o'g'il bolalar) tortinchoqligi, o'zini chetga olishi kabi xislatlari bilan farqlanib turadilar. Shu sababli ham ularda muloqotga kirishuvchanlik, o'zaro munosabatlar va muloqot tizimida yolg'iz qolishga intilish, o'zini chetga olish xislati sezilarli darajada kuchliroq namoyon bo'ladi.

Ushbu kuzatuvlarimizga qo'shimcha tarzda ayrim tavsiyalarni ham bilib olishimiz zarur.

Kichik maktab o'quvchilarini o'quv jarayoniga moslashtirish, ularning fanlarni yaxshi o'zlashtirishlarini ta'minlash uchun maktab psixologlari quyidagi tarbiyaviy ishlarni hamda yakka holda yondashuv uslublarini amalga oshirishsa ma'qul bo'lardi. Bu yoshdagi bolalarning oila a'zolari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun qishloq joylaridagi oilalardagi tarbiyalanayotgan o'g'il bolalarning ham otasiga, ham onasiga nisbatan bo'ladigan munosabatlariga alohida e'tibor berish, o'z navbatida ota-onalarning o'g'illariga nisbatan hissiy munosabatini oshirish, ular bilan ko'proq amaliy muloqotda bo'lishliklarini ta'minlash lozim va muloqotda bo'lishi zarur.

Demak, kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida ta'lim mazmunida milliy g'urur, inson sha'ni, insonga mehr-muhabbat, odamiylik, to'g'rilik, mardlik kabi insonparvarlik g'oyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik iymon, e'tiqod va vijdon amri bilan vatan oldidagi mas'uliyat hissini, muqaddas burchni anglashdir. Vatanparvarlik, Vatanga hurmat va muhabbat bilan bog'langan tuyg'u sifatida shakllanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalashda o'zbek xalq maqollari va she'riyat ham muhim rol o'ynaydi, ularga tarbiyaviy ta'siri katta. Birinchi sinfga kelgan o'quvchi savod o'rgatish davridayoq, dastur talabiga muvofiq atrof-muhitni kuzatishi va sayohatlar vaqtida tevarak-atrof haqida jonli

ta'surotlar olishi kerak. Bu bolalar tasavvurini kengaytiradi, so'z boyligini oshiradi, nutqini o'stiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sayohatga olib chiqish, ularni atrof-muhit bilan tanishtirish, sinf mashg'ulotlarida olgan bilimlarini kundalik hayot bilan bog'lash, takrorlash va mustaxkamlash, yanada boyitish, tushunchalarni yaxlitlashga xizmat qiladi. Bolalarga turli xil sayohat atrofdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligi sabablarini ochib berish uchun juda muhim. O'quvchilar ko'rgan-bilganlarini aniqlash, o'lchash-hisoblash ishlarini ona tillarida olib boradilar, ya'ni so'z terminlar bilan tanishadilar, ularni hisob-kitob jarayonidagi nutqlarida qo'llaydilar, tekshirib ko'radilar. Masalan, 1 sinfdagi tabiatni kuzatish vaqtida har bir faslning o'ziga xos belgilarini aniqlaydilar. Misol: Kuz faslida sovuq tushishi, daraxt barglari rangidagi o'zgarish, kishilarning kuzgi ishlarini bajarishlari bilan barobar, kunning qisqarishini ham hisoblab chiqadilar. Mehnat darslari bilan bog'liq holda o'quvchilar maktab yaqinidagi korxonalar ya'ni, zavod, ustaxona, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari, pochta bo'limi, qishloq jamoa xo'jaliklari, ta'mirlash ustaxonalari, o'rmon sanoati xo'jaligi, qurilish maydonlariga borib, ularning ishi bilan tanishadilar.

Musiqqa darslaridagi ishlardan biri darsdan tashqari tashkil qilinadigan turli tadbirlar, tabiatga sayr qilishdan iboratdir. O'quvchilar tabiat, bolalar hayoti, Vatan haqidagi ashulalarni birinchi sinfdan boshlab o'rganadilar. Ular «Paxtaoy», «Yomg'ir-yog'aloq», «Binafsha» kabi ashula va bolalar o'yinini, ikkinchi sinf o'quvchilari «Laylak qor», «Chamanda gul» kabi uchinchi sinf o'quvchilari «Quyosh bilan turamiz», «Vatan haqida qo'shiq» kabi ashulalarni o'rganadilar. Bunday ashulalar va o'yinlar o'quvchilarni sayohat vaqtidagi ruhini shod, hayotini quvnoq o'tishga xizmat qiladi. Bu bilan atrof-muhit to'g'risidagi tasavvurlarini ravshanlantirishga xizmat qiladi. Chunki, alohida ta'kidlash zarurki, ona tili barcha predmetlarni biriktiruvchi, o'quvchilar bilimini yaxlitlovchi xususiyatga ega bo'lgan darsdir. Chunki hamma darslar ona tiliga tayangan holda o'rganiladi, fikrlar, ona tilidagi matnlarda yuzaga chiqadi. Natijada ana shu bilimlar yozma ravishda ya'ni bayon, insho yozish orqali puxtalanadi. Boshlang'ich sinflarda

o'quvchilar inshosi uch manbaga tayanadi. Ana shu uch manbaning bittasi o'quvchilarning hayotiy kuzatishlaridan iboratdir. Boshlang'ich sinflarda hayotiy kuzatishlar hamma predmetlarni o'rganish jarayonida olib boriladi va ona tiliga oid nutq rivojining sinovi bo'lgan ijodiy yozma ishlarda jamlanadi va baholanadi. Demak, boshlang'ich sinflarda sayohatlar hamma fan uchun samarali natija berishi turgan gap.

UMUMIY XULOSA VA USLUBIY TAVSIYALAR

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol shaxs etib voyaga etkazish, ularda yuksak ma'naviyat va madaniyatni shakllantirish davlat ta'lim-tarbiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Xalqimizning boy madaniy merosi, milliy va umumbashariy qadriyalar asosida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy tarbiyalashning samarali vosita va metodlaridan unumli foydalanish o'qituvchi-tarbiyachi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashning vosita va usullari yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlarimiz natijasida to'plangan nazariy va amaliy ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga keldik.

1. Keyingi yillarda ta'lim sohasida o'qitishning ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalariga alohida e'tibor qaratilishi bilan bir qatorda, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari ham davlat siyosati darajasidagi eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

2. Mavjud ma'naviy-axloqiy tarbiya muammosiga doir tadqiqot ishlari katta yoshdagi o'quvchilar va talabalarga yo'naltirilgan bo'lib, bugungi kunda kichik yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, uni amalga oshirishning samarali vosita va usullarini to'laqonli o'rganish zarurati tug'ilmoqda.

3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga asos bo'lib xizmat qiluvchi vosita, omil va usullar borasida yetarlicha tajribalar mavjud. O'zbek halq pedagogikasi bola tarbiyasi sohasida kattagina tajriba, boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va an'analarga, milliy tarbiya vosita va usullarilariga ega.

4. Bugungi kunda tarbiyaning **bosh maqsadi** – har tomonlama etuk, barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Ushbu bosh maqsad tarkibiga milliy-mafkuraviy, g'oyaviy, xuquqiy, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy tarbiya vazifalari kiradi. Barkamol shaxsni shakllantirishda tarbiyaning har bir turi alohida o'rin tutadi. Ularning har biri o'z vazifasini bajarish bilan bir qatorda boshqa tarbiya turlariga ham xizmat qiladi, bir-birini to'ldiradi va boyitadi.

5. Tarbiyaning asosiy *maqsadi* – milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsida *insoniy sifat va fazilatlarni* shakllantirish, uni har tomonlama voyaga etkazishdir. Tarbiya jarayonida o'quvchilarda ona-Vatan, jamiyat, atrof muhit, tabiat, mehnat, ilm-fan, san'at va madaniyat, boshqa kishilar va o'z-o'ziga ijobiy munosabat shakllantiriladi. Zero, bolaning tarbiyalanganlik darajasi uning munosabatlari, his-tuyg'u, tushuncha, dunyoqarash, xatti-harakatlari va irodasida namoyon bo'ladi. Shaxs munosabat ruhiy, ongli va amaliy xarakterga ega bo'lishi mumkin.

6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama tarbiyalash jarayonida quyidagi munosablarni shakllantirish *vazifalari* nazarda tutiladi:

- jamiyat, ona-Vataniga mehr-muhabbat tarbiyalash;
- mehnat qilish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- atrof muhit, tabiatga ekologik, axloqiy-estetik munosabatni shakllantirish;
- boshqalarga axloqiy munosabatni shakllantirish;
- milliy va umumbashariy axloqiy, madaniy, ma'rifiy, estetik qadriyatlarga sadoqatni tarbiyalash;
- sog'lom turmish tarzi, gigienik tarbiya;
- jismoniy fazilatlarni tarbiyalash;
- sabr-toqat, irodasini tarbiyalash va h.k.

7. Maktabda har bir tarbiya turi o'quv jarayoni bilan birga qo'shib olib borilishi talab etiladi. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi. U o'qituvchilar jamoasi va har bir o'quvchi bilan hakorlikda ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi, sinfda ijobiy muhitni yaratishi, har bir dars o'quv materiali imkoniyatlaridan unumli foydalanishi zarur.

8. Kichik yoshdagi o'quvchilarda shaxsiy sifat va fazilatlarni shakllantirish jarayonida xalqimizning boy madaniy merosi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, tarbiyaning samarali omil, vosita va usullaridan mohirona foydalanish zarur. O'quv materiallari cheksiz va keng tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ulardan qanday foydalanish o'qituvchi mahoratiga bog'liq.

9. Kichik yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalashda ta'lim jarayoni etakchilik qiladi. Har bir fanning o'quv materiallari tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadiga xizmat qiladi. Bunday imkoniyatga nafaqat odobnoma, ona tili, o'qish, musiqa, tasviriy san'at, balki mehnat, tabiatshunoslik, matematika darslari ham ega. Ammo, bu vazifa o'qituvchidan yuksak mahorat, oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. U darsga tayyorgarlik ko'rishda faqat ta'limiy maqsadlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tarbiyaviy maqsadlarni ham aniq belgilab olishi lozim bo'ladi. Identiv tarbiyaviy maqsadlarga erishish yo'llari, vosita va usullarini o'rinli qo'llay olishi talab etiladi.

10. O'quvchilarning jamoada individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil etishda **tarbiya shakllaridan** samarali foydalanish tavsiya etiladi: sinf majlisi, yig'ilishlar, ertalabki yig'inlar, badiiy kecha va uchrashuvlar, turli xil badiiy-estetik, ijodiy va sport to'garaklari va h.k.

11. Kichik yoshdagi o'quvchilarni har tomonlama shakllantirishda **tarbiya vositalaridan** o'z o'rnida foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonida quyidagi **tarbiya vositalari** yordamga keladi: *hikoya, ertak, doston, she'r, adabiyot, suhbat, kitob, teleko'rsatuv, musiqa va tasviriy san'at asarlari, tabiat, kino, teatr, multipikatsion film, qo'g'irchoq teatri va boshqalar*. Biroq, bu predmetlar bolaga o'z-o'zidan tarbiyaviy vosita sifatida ta'sir etmaydi. Ularni harakatga keltirish, jamoa bo'lib ko'rish, eshitish, o'qish va muhokama etish orqaligina tarbiya vositasiga aylantirish mumkin. Nafaqat yuqorida qayd etilgan predmetlar, balki o'quvchilarning har xil **faoliyat turlari** ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin: *o'yin, gimnastika, sport, badiiy-estetik, ijodiy faoliyat turlari va h.k.*

12. O'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash jarayonida o'qituvchi muayyan **qoida (tamoyil)**larga rioya etish lozim: tarbiyaning aniq maqsadlarga qaratilganligi; insonparvarlik va demokratik yondashuv; unda milliy va umumbashariy qadriyatlarining ustivorligi; o'quvchilarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish; izchillik, tizimiylik, uzviylik; tarbiyada hurmat va talab birligi;

uning hayot va amaliyot bilan bog'liqligi; mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni qo'llab quvvatlash va h.k.

13. O'quvchilarni barkamol shaxs etib shakllantirishda tarbiyaning bir qancha metod va usullaridan foydalanish mumkin. **Tarbiya metodlari** – bu barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida uning ongi, xulq-atvori, xis-tuyg'ulari, irodasiga ta'sir etish yo'llaridir.

14. O'zbek xalqining milliy tabiya usullariga quyidagilarni kiritish mumkin: suhbat, hikoya, pand-nasihat, tushuntirish, namuna, o'git, undash, ko'ndirish, iltimos, tilak-istak bildirish, ma'qo'llash, rahmat aytish, duo qilish, oq yo'l tilash, ta'qiqlash, ta'na, gina, tanbeh, majbur qilish, koyish, uyaltirish, qo'rqitish, nafratlanish, rag'batlantirish, jazolash, o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatuvchi usullar va h.o.

15. Zamonaviy pedagogikada tarbiya metodlari **to'rtta guruhga** ajratiladi: o'quvchilarda ijtimoiy ongni shakllantirish; ijtimoiy xulqni shakllantirish; rag'batlantirish va jazolash; o'z-o'zini tarbiyalash metodlari. Ularning har biri ko'plab tarbiya metodlarini o'z ichiga oladi va bir-birini boyitadi. O'qituvchi bir paytning o'zida bir necha tarbiya usullarini ham qo'llash mumkin.

16. Oilada bola tarbiyasi muhim omil ekanligini hisobga olib, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ota-onalar bilan hamkorligida ish olib borishi, ota-onalar o'rtasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borishi, ularni tarbiyaning samarali vosita va usullari bilan qurollantrishi muhim ahamiyat kasb etadi.

17. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ishlarini sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar to'ldiradi. Sinf rahbari sifatida boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu yo'nalishda aniq ish rejasiga ega bo'lishi va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini qo'llashi lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. «Xalq so'zi» газетаси. 2016 yil 15 sentyabr, 182 (6617)-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoyishi. «Xalq so'zi» gazetasi. 2017 yil 6 iyul, 132 (6826)-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: «O'zbekiston», 2017, 103-105 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: «O'zbekiston», 2017, 14-15 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Harakatlar strategiyasi asosida taraqqiyot va yangilanish sari. - T.: «O'zbekiston», 2017, 29-31 bet
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. - T.: «O'zbekiston», 2017, 24-25 bet.
8. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. 2017, 5- son, 38-42 bet.
9. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. 2019, 6- son, 24- 27 bet.
10. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: 1992. 35-b.
11. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: «Yozuvchi», 2007.
12. Alouddin Mansur. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. –T.: 1992
13. Ergashev A., Hakimov D. Dostonlar – odobnoma darsligi. O'zbek xalq donishmandligi saboqlari. – T.: «Meros», 1993. – 54-78 b.
14. Farberman L.B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - GulDU., 1999. - 97 b

15. Hasanboeva O. Odobnoma. 2-sinf uchun darslik. –T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2016. – 189 b.
16. Hasanboeva O. Odobnoma. 1-sinf uchun darslik. – T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2017. – 62-67 b.
17. Hasanboeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – T.: «O'qituvchi», 1993. - 43-78 b.
18. Hikmatlar (Devoni hikmat) – T.: «G'.G'ulom», 1990. – 43-76 b.
19. Imom Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 1-4 kitoblar. – T.: «G'.G'ulom», 1994.
20. Iskandarov X. va boshqalar. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. I-II jildlar. – T.: «O'qituvchi», 1995, 1999.
21. Jo'raev A.K. Tarbiyaviy darslarni o'tish. T.: «O'qituvchi», 1994. – 76 b.
22. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008. -167 b.
23. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevor. – T.: «Sharq» NMKBT, 1997. – 63 b.
24. Mavlonova R. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: «O'qituvchi», 2013
25. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. –T.: «O'qituvchi», 2011. 98-125 b.
26. Matchonov S. O'qish. 4 sinf uchun darslik. –T.: «Yangiyul Poligraf servis», 2015. 156 b.
27. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – T.: «O'qituvchi», 1994. – 97 b.
28. Munavvarov A.K. Pedagogika. – T.: «O'qituvchi», 1996. – 76 – 114 b.
29. Ochilov M. O'qituvchi odobi. – T.: «O'qituvchi», 1994. – 35-67 b.
30. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. – T.: «O'qituvchi», 1997. – 89- 134 b.
31. Ubayxo'jaev D. Xalq og'zaki ijodidan foydalanish. Boshlang'ich ta'lim. 1999, №3-son, 26-27 betlar.
32. Umarova M. va boshq. O'qish. 3-sinf uchun darslik. –T.,«O'qituvchi», 2016. – 46 -89 b
33. Xoshimov K. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 1996. – 46 -89 b.

34. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A.. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: «O'qituvchi», 2014.

35. Zunnunov A. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar.–T.: «Sharq», 1996. – 43-67 b.

36. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: «O'qituvchi», 2000. – 37 -58 b

37. G'afforova G'.T. va boshq. O'qish. 2-sinf uchun darslik. –T., «Sharq» NMKBT, 2016.

38. [www. amazon.com](http://www.amazon.com)

39. [www. iet. mesi. ru](http://www.iet.mesi.ru)

40. [www. adpima. com](http://www.adpima.com)

41. [www. iet. mesi.ru](http://www.iet.mesi.ru)

42. [www. sciontologu.org. ru](http://www.sciontologu.org.ru)